




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



RESPUBLIKA  
TA'LIM MARKAZI

# UMUMIY O'RTA TA'LIMNING MILLIY O'QUV DASTURI

TASVIRIY SAN'AT VA  
CHIZMACHILIK





# LOYIHA



## MUNDARIJA

1. Amaliy fanlar tavsifi va predmetlar integratsiyasi .....	3
2. Amaliy fanlar bo'yicha bitiruvchilarga qo'yiladigan talablar.....	6
3. Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi.....	6
4. O'z-o'zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi.....	6
5. Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi.....	7
6. Amaliy fanlar orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar.....	7
7. Tasviriy san'at fanining o'qitish konsepsiyasi.....	8
8. Tasviriy san'at fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar.....	15
9. Chizmachilik fanining o'qitish konsepsiyasi.....	19
10. Chizmachilik fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar.....	43
11. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilariga TASVIRIY san'at fanidan qo'yiladigan talablar (1-7-sinflar).....	49
12. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilariga Chizmachilik fanidan qo'yiladigan talablar (8-9-sinflar).....	53
13. Tasviriy san'at fanining o'quv dasturi .....	54
14. Chizmachilik fanining o'quv dasturi.(8-9-sinf).....	76
15. Ishchi guruh a'zolari.....	83



## AMALIY FANLAR TAVSIFI VA PREDMETLAR INTEGRATSIYASI

Amaliy fanlar blok-moduli o'z ichiga Musiqa madaniyati, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Texnologiya, Jismoniy tarbiya va Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

O'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tadbiiq etishga o'rgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy, badiiy, ahloqiy, grafik madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirishda, kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo'lib, sog'lom turmush tarziga amal qilishga o'rgatish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, harbiy xizmatga tayyorlash, hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish amaliy fanlar tarkibida olib boriladi.

Yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o'zgarimoqda. Kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini STEAM ta'limi joriy etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan. Ilgari mehnat darslarida qizlar faqat fartuk tikishni, o'g'il bolalar bilan yog'ochga va metalga ishlov berishni, tasviriy san'atda tasvir qalam va mo'yqalamda va chizmachilik darslarida chizmalar sirkul va chizg'ichlar chizishni o'rganishgan bo'lsa, hozirgi kunda buning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Bugungi kunda butun dunyo maktab o'quvchilarini robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, programmalashtirish, 3D-loyihalashtirish va boshqa ko'plab yangiliklar qiziqtirmoqda.

Bunday qiziqishlarni amalda sinab ko'rish uchun yanada murakkabroq bilim, ko'nikma, malakalarni egallash va kompenesiyalarni shakllantirish zarur bo'ladi. Bu o'rinda nafaqat bilish va uddalay olish balki, tadqiqot olib borish va ixtiro qilish talab etiladi. STEAM-ta'limi DTS asosida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulotlari va maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarib ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.



**Musiqqa madaniyati** o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat,

nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'zbek, klassik va zamonaviy san'at haqidagi boshlang'ich bilimlarni o'zlashtirishga, musiqiy asarlarni tinglab tushunish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.



**Tasviriy san'at** o'quv predmeti o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, boshqa fanlarni (aniq va tabiiy fanlarni) o'zlashtirish jarayonida kreativ fikrlashga, dars jarayonida badiiy-estetik tafakkur va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallashga xizmat qiladi.



**Texnologiya** o'quv predmeti o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada

kuchaytirish, hunarmandchilik asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyihalarni tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. O'quv predmetini o'qitish orqali o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.



**Chizmachilik** o'quv predmeti o'quvchilarning grafik savodxonligi, fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishga, texnik detal va buyumlarning chizmalarini o'qish va uni tuzish qobiliyatlarini

shakllantirishga, mexanizmlarni, shemalar, arxitektura chizmalari va xaritalarni chizish haqida bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quv predmeti o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.



**Jismoniy tarbiya** o'quv predmeti o'quvchilarni jismonan sog'lom baquvvat, vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalash orqali jismoniy sifat: kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik hamda

egiluvchanlik malakalarini rivojlantirish, o'quvchilarning salomatligini saqlash, ularning jismonan yetuk bo'lib yetishishi uchun shart-sharoitlar yaratish va mashg'ulotlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



**Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik** o'quv predmetini o'qitishda o'quvchilarga harbiy qasamyod, harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarini va amaliy ko'nikmalar, shuningdek,



harbiy chiniqish, ruhan bardam bo'lish, fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Amaliy fanlar blokidagi fanlar o'zaro ona tili va adabiyot, matematika, biologiya, kimyo, fizika, geografiya va boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitiladi. Dars jarayonida quyidagi fan yo'nalishlari bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi:



**Ona tili va adabiyot** darslarida amaliy fanlar blokiga oid atamalar bilan so'z boyligi boyitiladi, og'zaki va yozma nutq birligi rivojlanadi. Shuningdek adabiy asar, ertaklar asosida syujetli kompozitsiya ishlashda fanlar bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi;



**Tarix** darslarida milliy an'analar, urf-odatlar, o'zbek va jahon san'ati tarixi, sport turlarini kelib chiqish va rivojlanish tarixi, harbiy san'at tarixi bilan tanishadilar. Shuningdek tarixiy asar yaratishda fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.



**Matematika** darslarida turli matematik o'lchovlar, bolalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, hisob-kitoblardan foydalanadilar. Shuningdek tasvirlash va chizishda fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.



**Geometriya** darslarida geometrik figura (nuqta, chiziq, sirt)larni tekislikda tasvirlash, ularning yassi va fazoviy munosabatlari, qonuniyatlarini o'rganish orqali aylana, simmetriya, diagonal, oval, ellips, ko'pburchaklar, sirtlar: prizma, piramida va sharlarni tasvirlashni, shuningdek shaklni proeksiyasi va yaqqol tasvirini bajarishda fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.



**Fizika** darslarida mexanik harakat, kinematikaning asosiy tushunchalari, mexanik ish va kinetik energiya, mexanik ish va potensial energiyalarni qo'llash, yorug'-soya munosabatlari, mexanik, dinamik, statik harakatlar, ballistika, spektr ranglarni hosil bo'lish qonuniyatlaridan foydalanib, fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.



**Kimyo** darslarida metallar va ularning birikmalari, eng muhim materiallar va ularning ishlab chiqarish asoslari, turli bo'yoqlar suv bo'yoq, moy bo'yoq, guash, rangli mellar, tempera kabilarni o'rganishda fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.



**Biologiya** darslarida jonzotlar, hasharotlarning plastik-anatomik tuzilishi va o'simliklarning turlari zaharlovchi moddalar, organizmda moddalarning almashinuvi, hamda ranglarini o'rganib, fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.



**Geografiya** darslarida dunyodagi tabiiy resurslarni olinishi va qo'llanishi hamda iqtisodiyotda tutgan o'rni, tabiat va uning elementlarini (osmon, tog'lar, adirlar, kengliklar, daraxtlar, daryolar va h.k.) geografik joylashuvi, topografik xaritalarni o'qish, haqidagi



ma'lumotlardan foydalib, fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.

**Informatika** darslarida o'rganilgan turli grafik dasturlarga innovatsion yondashgan holda, tasvirlar, formatlar, raster tasvirlar, ularning parametrlaridan foydalanishni, tasvir maydonlarini tanlashni, chizmalar chizishni, qo'shinlarni avtomatik ravishda boshqarish asoslarini, diagramma tuzishni o'rganib, fan bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.

MA'RUZA



## AMALIY FANLAR BO‘YICHA BITIRUVCHILARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

(umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar)

### **ESTETIK MADANIYAT VA IJODKORLIK KOMPETENSIYASI**

Borliqdagi va san‘atdagi go‘zalliklarni idrok etadi;  
mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlaydi;  
yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritadi;  
ijodiy faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholaydi va o‘z mehnatidan zavqlana oladi;  
konstruktiv fikrlaydi, g‘oyalarni amaliyotga tadbiq etadi;  
loyihalash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallaydi.

### **O‘Z-OZINI RIVOJLANTIRISH VA ASRASH KOMPETENSIYASI**

Kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigiena qoidalariga rioya qiladi;  
kundalik hayotida o‘z-o‘zining xavfsizligini ta‘minlaydi;  
 mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o‘yinlar orqali intellektini rivojlantiradi;  
turli asbob-uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qiladi.

### **AMALIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASI**

Turli chizma, sxemalarni o‘qiydi, tuzadi va kundalik hayotida qo‘llaydi;  
amaliy ishlarni mantiqiy ketma-ketlikda to‘g‘ri bajaradi;  
muammoni yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanadi;  
faloyatini texnik va texnologik taraqqiyot o‘zgarishlariga moslashtiradi;  
amaliy ko‘nikmalarini o‘zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qiladi.





## AMALIY FANLAR ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko'ra, amaliy o'quv predmetlari bloki-modulini o'qitish jarayonida o'quvchilarda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalarni shakllantirilishi belgilab berilgan. Amaliy fanlar bloki yo'nalishidagi fanlari orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg'ulotlarni o'zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirish, amaliy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talafuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur.

Fanlarni o'qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

**O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini** shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

**Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini** shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.



## TASVIRIY SAN'AT FANINING O'QITISH KONSEPSIYASI

### 1-bob. UMUMIY QOIDALAR

1. Tasviriy san'at fanining o'qitish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.Abduvaxitovning 2020 yil 17 fevraldagi 08-547-son topshirig'i ijrosi bo'yicha ishlab chiqilgan.

2. Ushbu konsepsiya umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanini o'qitilishining nazariy tizimlarini, asosiy tamoyillarini, dolzarb masalalar yechimining maqsad va vazifalarini hamda ta'lim muassasalarida mazkur fanlarni o'qitishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi, jumladan:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilayotgan Tasviriy san'at fanini o'qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

o'quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, umummadaniy kompetensiyalar, san'at, madaniyatga qiziqtirish asosida axloqiy-estetik va jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

o'quvchilarda san'atni sevish, estetik madaniyatni shakllantirish, madaniy meros va milliy qadriyatlarga chuqur hurmat hissini tarbiyalash;

o'quvchilarda mehnatsevarlik, ijodkorlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik sifatlarini tarkib toptirish;

o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatini tarkib toptirish.

### 2-bob. TASVIRIY SAN'AT FANNING O'QITISHNING JORIY HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

3. O'zbekistonda san'at, ma'naviy, estetik va badiiy an'analarni avlodlariga yetkazish, san'at asarlarini idrok etishga o'rgatish orqali badiiy madaniyatni rivojlanishi, jismoniy, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash, jismoniy salomatligini mustahkamlash, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Tasviriy san'at fanning o'quvchilarda xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish bilan birga badiiy va estetik did hamda jismoniy sifatlarni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

4. Ushbu fanlarni o'qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash orqali o'quvchilarda madaniyat, qadriyatlarga asoslangan ijodiy va shaxsiy fazilatlar shakllantiriladi.

-darsliklarda o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarda bilishga qiziqish, ishtiyoq va xoxishni hosil qiladigan o'yin va mashqlar, art-texnologiyalarni aks ettirish;



-o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlash, mazkur fan bo'yicha mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanib o'qitishni takomillashtirish;

-mazkur fanlarni o'qitishda ilg'or xorijiy, jumladan, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi Osiyoning rivojlangan davlatlari tajribalarini hisobga olish;

-mazkur fanni o'qitishda ko'proq amaliyotga shuningdek, badiiy-estetik va ma'naviy-axloqiy fazilatlar qadriyat sifatida anglanishiga e'tibor qaratish;

-o'quv dasturlari va darsliklar mazmunida tizimlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga rioya etish, mavzularda ketma-ketlik va izchillikni inobatga olish;

-mavzularni o'zlashtirish shaxs rivojining kognitiv (bilish) sohasiga yo'naltirilganligi bilan birga, kreativlik, ijtimoiy-emotsional va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish;

-mazkur fanlarda o'qitiladigan mavzularni fanlar va mavzulararo integratsiyasiga e'tibor qaratish;

-darsliklarda o'quvchilarni faollashtirishga doir savol va o'quv topshiriqlari berilishi bilan birga, reflektiv, o'zini o'zi rivojlantirish va baholash ta'lim texnologiyalari, badiiy-estetik tahlilga asoslangan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatiga mos tashxis vositalaridan samarali foydalanish;

-mavzularni izchillikda tizimlashtirish va juda ilmiy atamalar ko'p qo'llanilishini soddalashtirish zarur.

### **3-bob. TASVIRIY SAN'AT FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI**

5. Tasviriy san'at fanning maqsadi – o'quvchilarda tasviriy savodxonlik, badiiy-ijodiy fantaziyani, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlarni, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdir.

6. Tasviriy san'at fanining asosiy vazifalari:

o'quvchilarning badiiy tafakkurini shakllantirish orqali ularda tasviriy va amaliy san'at asarlarini estetik idrok etish kompetensiyalarini takomillashtirish;

o'quvchilarda san'at asarlarini ijtimoiy mohiyati va ahamiyatini anglash, idrok etish va baholash, ularga estetik munosabat bildirish malakalarini tarkib toptirish;

atrof-muhit, borliqdagi va san'at asarlaridagi estetik holatlarni anglashga oid bilim va malakalarni shakllantirish;

o'quvchilarni tasviriy va amaliy san'at, badiiy hunarmandchilik, me'morlik va dizayn san'ati namunalari bilan tanishtirish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariy bilim va amaliy malakalarini tarbiyalash;

o'quvchilarni tasviriy san'atning turlari (rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik), janrlari (portret, natyurmort, manzara va b.), tasviriy



san'atning qonuniyatlari (kompanovka, perspektiva, kompozitsiya, ritm, faktura, yorug' va soya va h.k.), ifodaviy vositalari (rang surtmasi, chiziq, faktura va b.) bilan tanishtirish orqali ularda tasvirlash malakalari, ijodkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish;

tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilim va malakalarni tarkib toptirish vositasida barkamol shaxs tarbiyasining muhim komponentlari – o'quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tafakkur va tasviriy savodxonlikni shakllantirish.

tasviriy san'at (grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik), amaliy bezak va milliy hunarmandchilik, arxitektura va dizayn, kompyuter grafikasi va animatsiya, fotografiya, sintetik san'at (teatr va kino) sohasidagi badiiy tajribani rivojlantirish;

San'at asarlari bilan aloqa qilish ehtiyojini rivojlantirish, semantik, estetik va shaxsan muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy madaniyat an'analari faol munosabatni shakllantirish.

#### **4-bob. TASVIRIY SAN'AT FANINING O'QITISH METODOLOGIYASI**

##### **7. Tasviriy san'at fanning o'qitishning asosiy tamoyillari:**

Tasviriy san'at fanning aniq maqsadga qaratilganligi;

ilmiylik (har bir o'quv-tarbiyaviy jarayon elementlarining puxta asoslanganligi, samaradorlikning amaliy faoliyat natijalari asosida baholanishi);

pedagogik va texnologik shart-sharoitning ta'minlanganligi (ko'zda tutilgan natijaga erishishni tizimli amalga oshirish);

uzviylik, uzluksizlik (o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar negizida yangi bilim, amaliy ko'nikma, malakalarini shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqich uchun asos bo'lishiga erishish);

individual yondashuv (har bir o'quvchining shaxsi bilan yaqindan tanishish, uning harakteri, ehtiyojlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlarini o'rganish va ularga tayanib ish ko'rish);

o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning ijobiy fazilatlarga tayanish (mavjud ijobiy qobiliyat va fazilatlar negizida yangi sifatlarni rivojlantirish, salbiy illatlarni bartaraf etib borish);

o'quv-tarbiya jarayonining dinamik xususiyatga egaligi (shakllantiriladigan qobiliyat va fazilat to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lish – tushunchani hosil qilish – bilimga ega bo'lish – ko'nikmaning shakllanishiga erishish – malakani hosil qilish – odatning shakllanishiga erishish – muayyan ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik fazilat va amaliy ko'nikmalarning mavjud darajasi);

o'quvchilarning yosh, pedagogik-psixologik, milliy va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish;

ta'lim va tarbiya birligi;

yaxlit yondashuv (o'quv-tarbiya jarayoniga mas'ul sub'ektlar tomonidan ta'limiy maqsadning bir xil tushunilishi);



pedagogik hamkorlik (o'quv-tarbiya jarayoni sub'ektlari – oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish va uni mustahkamlash).

STEAM ta'limini joriy etish orqali maktab o'quvchilarining fanlar integratsiyasiga qurilgan savodxonlik darajasini oshirish.

8. Tasviriy san'at fanining o'quvchilar faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi: go'zallik va san'atni idrok etish; mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlash; yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritish; ijodiy faoliyatini to'g'ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholash va o'z mehnatidan zavqlana olish; muammolar yechimiga muqobil yondashish va to'g'ri qaror qabul qila olish; mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik hamda ishchanlik, faollik sifatlarini shakllantirish; mantiqiy fikrlash, g'oyalarni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalarini rivojlantirish;

O'z-o'zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi: jismoniy mashqlarni inson salomatligi uchun ahamiyatini bilish va qo'llash; mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o'yinlar orqali intellektini rivojlantirish; jismoniy sifatlarni mustaqil ravishda rivojlantirish; sog'lom turmush tarziga rioya qilish

Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi: o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash, faoliyatini oqilona rejalashtirish; muammoni yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanish; faoliyatining barqarorligi va o'zining farovonligini ta'minlay olish; faoliyatini tanqidiy baholash, uni yaxshilash uchun o'z ustida ishlash; o'z faloyatini texnik va texnologik taraqqiyot o'zgarishlariga moslashtira olish; jamoada hamkorlikda ishlash; kasb turi va faoliyati yo'nalishini ongli hamda mustaqil ravishda tanlash; amaliy ko'nikmalarini o'zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qilish ko'nikmalarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

9. Tasviriy san'at fanining dasturiy-metodik ta'minotini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar.

Ushbu fanlardagi amaliy ahamiyatga ega mavzular o'quvchilarda bilim, amaliy ko'nikmalar va ijtimoiy-emotsional fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan holda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda rivojlantirib boriladi. An'anaviy yondashuvdan farqli ravishda o'quvchilarda zaruriy bilimlarni shakllantirish bilan birga, tayanch va fanlarga oid kompetensiyalar va shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga erishish lozim.

10. Tasviriy san'at fanining mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida o'qitishning ilg'or metodikalari, maktab, oila, ijtimoiy institutlar va madaniy muassalalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim.

O'quvchilar bilan oilada, dars, darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi;



oila, sinf va maktabdagi o'quv faoliyati natijalarini integral diagnostika qilish;

milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish, innovatsion ta'lim texnologiyalarni amalda qo'llay bilish malakalariga ega bo'lish;

mazkur fanlar darslarida hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish;

o'quvchilar faoliyati natijalarini baholash, tahlil etish va prognozlash;

darslarda o'quvchilarning individual xususiyatlari, yoshi, bilim darajasi, dunyoqarashi, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiya va ruhiy holatlarini hisobga olish;

kreativ, ilg'or pedagogik texnologiyalari va o'qitish metodlaridan foydalanish orqali fanlarning maqsadlariga va o'qitishda natijaviylikka erishish.

11. Tasviriy san'at fanining o'quv dasturlari malaka talablari va ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

12. Tasviriy san'at fanining darsliklarni ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar:

barcha paragraflarda mavzuga mos matn, ilustrasiyalar, savollar, topshiriqlar va mashqlar bo'lishi. Ular turli tuzilish va murakkablik darajasiga ega bo'lishi;

savollar bilimlarni rivojlantirishi, yangi mavzuni o'rganish uchun zarur bo'lgan mavjud faoliyat tajribasiga asoslanishi;

mustaqil bajarish uchun savollar, topshiriqlar, ijodiy, amaliy, amaliy-yo'naltirilgan, mustaqil izlanishga doir topshiriqlarning taqdim etilishi;

taqdim etilgan fotosurat, rasm, chizma, jadvallarga va boshqa turli ilustrasiyalarga mos savol va topshiriqlar matnda izohlar bilan birga berilishi;

o'quvchilarning o'quv materiallarini o'rganishga qiziqtiruvchi topshiriq va savollarning (o'quv topshiriqlari mazmuni, bajarish tartibi, kutiladigan natija) aniqligi;

matn sarlavhasi, asosiy fikrlar va tushunchalarni ajratib ko'rsatish, asosiy axborotlarni o'zlashtirishga metodik yordam ko'rsatish;

har bir mavzudagi "uy vazifasi" qismiga tushuntirishlar berish;

o'quvchilarning qo'shimcha ma'lumot olishi uchun manbalar ro'yhatini taqdim etish;

raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron axborot ta'lim resurslari, darslikning elektron (mobil) ilovasini ishlab chiqish;

izohli lug'at (glossariy) mavjud bo'lishi lozim.

## **5-bob. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI**

13. Vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxonalar va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Tasviriy san'at fanining konsepsiyasini amalga oshirish tizimini tashkil etadi.



14. Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi quyidagi asosiy choratadbirlarni nazarda tutadi:

ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlarini mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar talablari darajasiga ko'tarish;

Tasviriy san'at fanini o'qitish bo'yicha o'qituvchilarning kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlari, pedagogik madaniyatini oshirish, o'quvchilarda badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy tarbiya va jismoniy komillika intilish sifatlarini tarkib toptirishni barchaning vazifasiga aylantirish;

O'quv-tarbiya jarayonini jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodikasi asosida muntazam takomillashtirib borish;

O'quv-tarbiya mazmunini real hayot, yoshlarning qiziqishlari va qobiliyatlari bilan bog'lash, ta'lim va tarbiyaning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish va rag'batlantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

ota-onalar, jamoatchilikning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus yo'nalishlari bilan uyg'unlikda olib borish;

ijodiy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi chellenjlar, qo'shiqlar va madaniy-ma'rifiy animatsiyalar, bukletlarni yaratish;

mazkur fanlarni o'qitishdagi muammolarni bartaraf etish, o'qitishni takomillashtirish masalalarini hal qilish maqsadida mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning yetakchi olimlarini taklif etgan holda respublika va xalqaro konferensiyalar, forum va seminarlar o'tkazish;

o'quv-tarbiya jarayonining muntazam ilmiy-pedagogik monitoringini olib borish va bunda IT texnologiyalaridan samarali foydalanish;

ota-onalar, pedagoglar, bolalar, yoshlar uchun turli rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang qo'llanmalar, multimedia mahsulotlar kabi didaktik materiallar turkumini yaratish.

## **6-bob. YAKUNIY QOIDALAR**

15. Tasviriy san'at fani bo'yicha ishlab chiqiladigan me'yoriy hujjatlar mazkur konsepsiyada belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

16. Konsepsiyani amaliyotga joriy etish ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxonalar va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik bilan o'zaro kelishilgan holda amalga oshiriladi.



## TASVIRIY SAN'AT FANI BO'YICHA UMUMIY O'RTA TA'LIM BITIRUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

### GRAFIKA

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tabiatning kuz, qish, bahor, yoz fasllariga oid ko'rinishlarini, daraxtlarning xarakterli xususiyatlarini solishtiradi, badiiy tahlil qiladi;  
tabiatdagi tog'larning joylashishi, shakli, tuzilishini badiiy tahlil qiladi;  
tabiatdagi hayvonlar, qushlar, hashorotlar, suv osti jonivorlari va gullarning turlarini, shaklini badiiy tahlil qilinadi;

O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari tarixi va uning an'anaviy usullarini to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rtoqlari bilan fikrlashadi;  
tasviriy san'at tur va janrlariga oid asarlarni badiiy tahlil qiladi;  
o'zbek xalq amaliy san'ati turlarini solishtiradi va badiiy tahlil qiladi;  
tasviriy san'atning ifodaviy vositalariga ijodiy yondashib, tasvir ishlaydi;  
tasviriy san'atdagi oqim, yo'nalishlaridagi asarlardan zavqlanadi, badiiy idrok etadi.

#### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

tabiat o'zgarishlarini ifodalashda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qiladi;

tasviriy san'atning tur va janrlariga oid axborot manbalaridan zaruriy ma'lumotlarni topadi, faoliyatida qo'llaydi;

ijodiy ishni bajarish jarayonida ish qurollari hamda materiallardan to'g'ri foydalanadi.

#### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Kuz, qish, bahor, yoz fasllarining xarakteri va manzarasini badiiy ifodalaydi;

Asosiy va hosila ranglar haqida tushuncha oladi va ish jarayonida qo'llashni o'rganadi ;

me'moriy yodgorliklarga oid asarlarni tahlil qiladi va eskiz xomaki chizmalarni vizual ifodalaydi;

sport o'yinlariga oid kompozitsiya ishlaydi;

yordamchi chiziqalar va sxemalardan foydalanib, naqsh turlaridan kompozitsiya yaratadi;

naqsh elementlari nomlarini biladi va mustaqil qo'llay oladi;

qalamtasvirda natyurmort chizishda, qog'ozga to'g'ri joylashtirish, narsaning simmetriyasi, fazoda joylashishi, o'zaro nisbati, perspektiv holati kabi qoidalariga rioya etadi;

dizayn san'ati turlari asosida eskizlar ishlaydi;

kitob maketi uchun illyustatsiyalar tayyorlaydi;

O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari va durdonalari eskizini chizadi.





badiiy bezatilgan qadimiy va zamonaviy kitob namunalari eskizini chizadi;

qalamtasvirda natyurmort ishlaydi;

kitobat san'atining badiiy grafik elementlaridan (muqova, titul varog'i, ilustrasiya) to'g'ri foydalaniladi va kitob badiiy bezagining eskizini ishlaydi.

## HAYKALTAROSHLIK

### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

haykaltaroshlik usulida meva, sabzavot, hayvon, parranda, suv jonovorlarini tasvirlashda ijodiy yondashadi.

haykaltaroshlik usulida inson gavdasini tasvirlashda ijodiy yondashadi.

### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Plastilin va loy bilan ishlaganda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qiladi.

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

plastilin va loydan mevalar shaklini badiiy idrok etgan holda yasaydi;  
plastilin va loydan hayvon shaklini badiiy idrok etgan holda yasaydi;  
plastilin va loydan parranda shaklini badiiy idrok etgan holda yasaydi;  
plastilin va loydan suv jonovorlarini shaklini badiiy idrok etgan holda yasaydi;

harakatdagi odam gavdasini haykaltaroshlik usulida tasvirlaydi;

inson gavdasini o'lchamlar asosida tasvirlaydi.

## RANGTASVIR

### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Spektr ranglardan ijodkorona foydalanadi;

turli koloritda ishlangan rangtasvir asarlarini badiiy tahlil qiladi;

animalistik janridagi tasviriy san'at asarlarini badiiy ijodiy idrok etadi;

portret janrida ishlangan asarlarni badiiy tahlil qiladi;

sharq miniatyura san'ati, tarixi, maktablari va asarlarini ijodiy tahlil qiladi;

O'zbekiston amaliy bezak san'atini badiiy tahlil qiladi va solishtiradi;

dizayn san'ati turlari haqida ma'lumotni biladi, badiiy tahlil qiladi va solishtiradi.

tasviriy san'atda ramziy belgi va geraldikani mustaqil ijodkorona ifodalaydi.

### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Ijodiy ish bajarishda ish qurollari hamda materiallardan to'g'ri foydalana va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qiladi;

O'zbekistonning me'moriy durdonalarini mustaqil o'rganadi va tasvir ishlashda qo'llaydi.



### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Olma, xurmo mevalarini, sharni va boshqalarni tasvirlashda ranglardan to'g'ri foydalanadi;

- animalistik janrda amaliy ish bajaradi;
- kichik hajmdagi baliq rasmini chizadi;
- O'zbekiston naqsh ramzlari va amaliy bezak namunalariidan foydalanib mustaqil kompozitsiya tuzadi;
- geometrik shakllar yordamida yuk mashinasi tasvirini chizadi;
- tuya tasvirini chizadi;
- daraxtning turiga qarab shaklini tasvirlay oladi;
- natyurmort ishlash jarayonida buyumlarning nisbatlarini to'g'ri taqsimlaydi;
- yo'lsimon, to'g'ri to'rtburchak shakl ichiga murakkab naqsh ishlay oladi;
- natyurmorti tasvirini yorug'-soya qonuniyatlari va ranglarni to'g'ri qo'llagan holda ishlaydi;
- manzara fonida natyurmortni o'ziga xos qonuniyatlarini qo'llagan holda ishlaydi;
- sharq me'morligi manzarasini tasvirlashda perspektiva qonuniyatlarini qo'llaydi;
- o'zbek xalq ertaklari ilustrasiyasidan va miniatyura usulida ishlangan ilustrasiyadan nusxa ko'chiradi;
- tasviriy san'at asarlari, natyurmort, manzara, portret janridagi asarlardan nusxa ko'chira oladi;
- amaliy bezak san'ati namunalariiga qarab naqsh ishlaydi;
- tarixiy me'moriy obidalar ishtirokida manzara ishlaydi;

### **KOMPOZITSION FAOLIYAT**

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Kuzgi mevalarni, kompozitsion asarlarni badiiy ijodiy tahlil qiladi;

- tabiatdagi hayvonlarning turlari, yashash tarzi va ularning xarakterli xususiyatlarini solishtiradi va idrok etadi;
- tasviriy san'at asarlarida narsalarning och-to'qlik darajalarini farqlaydi;
- manzara janridagi asarlarni tahlil qiladi;
- haykaltaroshlarning mavzuga oid asarlarini tahlil qiladi;
- puantilizm uslubida manzara ishlashga ijodiy yondashadi;
- rassomlarning impressionizm, kubizm uslubida ishlangan asarlarini solishtiradi va badiiy tahlil qiladi.

#### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Rangtasvir, qalamtasvir, plastilin va loy bilan ishlaganda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qiladi;

- jamoaga bilan ishlash jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qiladi.



## Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi

o'zbek va jahon xalq ertaklari asosida kompozitsiya ishlaydi;  
adabiy asar syujeti asosida, yordamchi chiziqlarni qo'llagan holda portret ishlaydi;

sharq mumtoz adabiyoti syujetlari asosida miniatyura usulida mustaqil kompozitsiya ishlaydi;

adabiy asar syujeti asosida mustaqil kompozitsiya ishlaydi;

yelkanli qayiq rasmini geometrik shakllar asosida tasvirlaydi;

kapalak va to'tiqush rasmini tasvirlaydi;

manzara tasvirini qog'ozga to'g'ri joylashtiradi va chizadi;

«Bo'g'irsoq» ertagi asosida haykal yasaydi;

daraxtlarning qishki ko'rinishlari mavzusida kompozitsiya ishlaydi.

gullardan, barglardan yo'lsimon naqshni mustaqil ishlaydi;

doira shaklidagi naqsh kompozitsiyasini mustaqil chizadi;

kompozitsiyada asar yaratishning muayyan qoidasi, simmetriya, nosimmetriya, muvozanat, detallarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qiladi;

kvadrat, doira shaklni teng bo'laklarga bo'lib, barg, bofta va gullarni to'g'ri joylashtirgan holda naqsh ishlaydi;

xalq etaklari syujeti asosida, koinot olami, kosmonavtika haqida tushuncha olgan holda mustaqil ravishda kompozitsiya ishlaydi;

tog'larning bahorgi ko'rinishi, tuzilishi, shakli, rangini tahlil qilgan holda mustaqil kompozitsiya ishlaydi;

harakatdagi odam tanasining qismlari nisbatlarini to'g'ri chamalagan holda haykal ishlaydi;

mustaqil ravishda (portret ishlash qoidalariga rioya qilgan holda) portret ishlaydi;

rassomlarning impressionizm, kubizm uslubida ishlangan asarlarini solishtiradi, tahlil qiladi, tahlil qilingan asarlar asosida manzara ishlaydi;

girixli naqsh elementlaridan mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuzadi;

me'moriy obidalar, ularning asrlar davomida saqlanib qolganliklarini solishtiradi va tahlil qiladi, sodda usullarda chizadi;

frontal va burchakli perspektiva qoidalarini qo'llagan holda mustaqil frontal perspektiva usulida o'z xonasini jihozlaydi.



## CHIZMACHILIK FANINING O‘QITISH KONSEPSIYASI

### 1-bob. UMUMIY QOIDALAR

**1. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimida chizmachilik fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi** O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli hamda 2019 yil 6 sentabrdagi “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli va va 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, 2025 yilgacha O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi asosida ishlab chiqilgan.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga ta’lim berishning zamonaviy innovatsion usullarini joriy etish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotikeyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomativlari qatoriga kirishi, ya’ni 2030 yilga kelib iqtisodiyotningsanoat va texnologik tarmoqlari bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan “Raqamli O‘zbekiston -2030” dasturini ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilandi.

Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali zavodlar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda umumta’lim maktablarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda sanoati rivojlangan mamlakatda ta’lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylandi.

Konsepsiya umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chizmachilik fanini o‘qitishning nazariy tizimlarini, asosiy tamoyillarini, dolzarb masalalarini, uning yechimlarini, maqsad va vazifalarini hamda ta’lim muassasalarida mazkur fanni o‘qitishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi, jumladan:

- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan chizmachilik fanini o‘qitishda uning ta’lim tizimida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash;
- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;
- o‘quvchilarda mehnatsevarlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik sifatlarini tarkib toptirish;



- o'quvchilarda mustaqil, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish, o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini tarkib toptirish.

## **2. Konsepsiya xalq ta'limi tizimida chizmachilik fanini o'qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi.**

### **Jumladan:**

- ta'lim sohasi rivojlangan xorijiy davlatlar Rossiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, AQSh, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarning ta'lim sohasidagi yutuq va tajribasidan foydalanib, milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

- chizmachilik fanidan Davlat ta'lim standarti talablarini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

- chizmachilik fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

- chizmachilik fanini umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish;

- chizmachilik fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

- chizmachilik fanini mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan grafik bilimlarni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish;

- chizmachilik fanini o'qitishda variativ o'quv modullarini ishlab chiqish;

- umumiy o'rta ta'lim jarayoniga chizmachilik fanini o'qitishda milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakl, usul va vositalarini keng joriy etish;

- chizmachilik fanini o'qitishda gumanitar va politexnik, ijodiy va umummadaniy yo'nalishlarni amalga oshirish;

- grafik faoliyat bilan ish ko'radigan turli xil soha vakillari: turli yo'nalishdagi konstruktorlar, arxitektorlar, me'morlar, hunarmandlar, muhandislar va dizaynerlarning chizmalar bilan bog'liq faoliyatini o'rganishga yo'naltirish;

- chizmachilik fanini o'qitishda o'quvchilarni o'zlarining va o'zgalarning salomatliklarini saqlashga, texnika xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta'minlashda chizmachilik fani bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini joriy etish;

- chizmachilik fani bo'yicha nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, kundalik hayotiy jarayonlarda duch kelgan muammolarni hal qilishda foydalana olishga yo'naltirish;



- chizmachilik ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviyligini ta'minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish;
- chizmachilik fani metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- chizmachilik ta'lim me'yoriy xujjatlarini ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;
- chizmachilik ta'lim bo'yicha bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarining uzviyligini ta'minlash hamda amaliyotga tatbiq etish;
- chizmachilik ta'lim mazmuni va mohiyatini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o'qitishning yangi aspektdagi metodikasini ishlab chiqish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;
- umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida chizmachilik ta'limining o'zaro integratsiyasini ta'minlash va bitiruvchilarni kasb-hunarga o'rgatish orqali hayotga tayyorlash ishlarini tashkil etish;
- chizmachilik ta'lim mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan grafik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish;
- chizmachilik ta'limini tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari asosida tizimli o'quv modullarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bitiruvchilarni tarbiyalashning samarali metodikasini keng joriy etish;
- chizmachilik ta'limining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;
- ishlab chiqarish sohasida bozor munosabatlariga mos o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash;
- me'yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

## **2-bob. CHIZMACHILIK TA'LIMINING AMALDAGI JORIY HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR**

### **3. Hozirgi vaqtda chizmachilik ta'limining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum.**

O'zbekistonda san'at, ma'naviy, estetik va badiiy an'analarni avloddan-avlodlarga yetkazish, san'at asarlarini idrok etishga o'rgatish orqali badiiy va grafik madaniyatni rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash, jismoniy salomatligini mustahkamlash, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Chizmachilik fani o'quvchilarda xotira, diqqat, tasavvur, harakatlar koordinatsiyasi kabi psixologik faoliyatlarni shakllantirish va uni rivojlantirishga yo'naltiriladi.



Bugungi kunda maktabgacha, umumiy oʻrta, professional va oliy taʼlim tizimlarida taʼlim olayotgan oʻquvchilarda yuqori darajada taʼlim olishi, fan sohasida yetarli bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni oʻzgartirdi. Shu bilan birga katta mehnat migratsiyasi, rivojlanmagan ijtimoiy infratuzilma qashshoqlik va ishsizlikning yuqori darajasi, infratuzilmaning eskirganligi, iqtisodiy rivojlanish strategik maqsadlariga nomuvofiqligi, intellektual mulkni himoya qilish muammolari, oliy maʼlumot olish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori texnologiya va ilm-fanga asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, inson kapitali va imidjiga zarur miqdordagi investitsiyalarning sarflanmasligi, malakali xodimlarning yetishmasligi, oʻrta boʻgʻin rahbar va xodimlarning past darajadagi malakasi, eskirgan ish usullaridan foydalanish kabi muammolar oʻz yechimini kutmoqda.

Sanoatning bevosita rivojlanishida chizmachilik fanida egallaniladigan grafik bilimlar (eskiz bajarish, ish chizmalarni chizish, yigʻish chizmalarini tuzish va har xil turdagi chizmalarni oʻqish) oʻz oʻrniga ega ekanligi namoyon boʻlmoqda, bu esa iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishda chizmachilik fanining salmogʻi, ulishi uning innovatsiyalari rolini kuchaytiradi va amaliy ahamiyatini koʻrsatib beradi.

Innovatsion texnologiyalarining rivojlanishidagi kechikish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytirishi, shuningdek, oʻsib borayotgan ishlab chiqarish taraqqiyotida uning zaifligini oshirishi mumkin.

Ishlab chiqarish sohasida kutilayotgan yangi oʻzgarishlar sharoitida umumiy oʻrta, professional taʼlim tizimlarida chizmachilik bilimlari oʻquvchi-yoshlarda ijodkorlik qobiliyati va mehnat koʻnikmalarini rivojlantirish, ularda oliy taʼlim bosqichida yoki mustaqil hayotga qadam qoʻyishda zarur boʻladigan bazaviy kompetensiyalar va ilmiy dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy yechim boʻlib xizmat qiladi.

Chizmachilik bilimlarini oʻzlashtirgan bitiruvchilar ishlab chiqarish sohasida va taʼlim sohasining barcha tarmoqlarida taʼlim olishda mukammal maʼlumot uzatish va maʼlumot olishning qulay va tushunarli vositasi sifatida "grafik til" vazifasini bajaradi.

Taʼlim tizimi jarayonlari yuqori darajada rivojlangan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSh, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar taʼlim tizimida ham grafik taʼlim ishlab chiqarishning asosiy boʻgʻini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Oʻquvchilarga grafik taʼlim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kirishi, yaʼni 2030 yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va seleksiyaning tarmoqlari boʻyicha jahonda



yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat rivojlanishiga shiddatli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bunda mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish, yangi va zamonaviy bosqichga ko'tarish zarur vazifa etib belgilandi.

#### **4. Ushbu fanlarni o'qitishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash orqali o'quvchilarda grafik madaniyatga asoslangan grafik bilimlar va shaxsiy fazilatlar shakllantiriladi, mazkur fanlarning mazmuni va o'qitishda quyidagi muammolar mavjud:**

-ijodiy erkinlikni ta'minlash maqsadida amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan DTS asosida alternativ darsliklarning yaratilishi va ulardan tajriba sinov tarzida foydalanishni yo'lga qo'yish;

-darsliklarda o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarda bilishga qiziqish, ishtiyok va xoxishni hosil qiladigan o'yin va mashqlar, art-texnologiyalarni aks ettirish;

-o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlash, mazkur fan bo'yicha mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanib o'qitishni takomillashtirish;

-mazkur fanlarni o'qitishda ilg'or xorijiy, jumladan, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi Osiyoning rivojlangan davlatlari tajribasini hisobga olish;

-o'quv dasturlari va darsliklar mazmunida tizimlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyillariga rioya qilinmagan. Mavzularda ketma-ketlik va izchillik hisobga olinmagan;

-mavzularni o'zlashtirish shaxs rivojining kognitiv (bilish) sohasiga yo'naltirilgan bo'lib, kreativlik, ijtimoiy-emotsional va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qilmaydi. Mavzularni o'zlashtirish uchun asosan bilimlarni tekshirishga doir test savollaridan foydalanish bilan cheklanilgan;

-mazkur fanlarda o'qitiladigan mavzular sinflar bo'yicha tahlil qilinganda ko'plab mavzular fanlar va mavzulararo integrallashtirilmagan;

-darsliklarda o'quvchilarni faollashtirishga doir savol va o'quv topshiriqlari berilgan, biroq reflektiv, o'zini o'zi rivojlantirish va baholash ta'lim texnologiyalari,

-mavzular izchillikda tizimlashtirilmagan va ayrim hollarda noto'g'ri va g'aliz o'rindagi ilmiy atamalar ko'p qo'llanilgan.

#### **Hozirgi vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishning amaldagi holati tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi. Jumladan:**

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi chizmachilik fanini o'qitishda ko'p hollarda o'quvchilarning ijodkorlikni rivojlantirmaydigan, ularda axborot bilan ishlash va undagi asosiy mazmunni aniqlash, tahlil qilish va bir tizimga keltirish malakalari shakllanishiga ko'maklashmaydigan ta'limning reproduktiv metodlaridan keng foydalanilmoqda. O'quvchilarning





kasb tanlashi va biror sohadan malakali mutaxassis bo'lib shakllanishida esa faqat o'z sohasining bilimdoni va shu yo'nalishdagi axborotlarni egallaganlik bilan bir qatorda, ulardan har xil kasbiy vaziyatlar yuzaga kelganda o'rinli foydalana bilish ham talab qilinadi.

Umumta'lim maktablaridagi texnologiya darslari bilan bir qatorda chizmachilik fani ham o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, konstruksiyalash va ijodkorlik qobiliyatlarini hamda ularning politexnik bilimlarini shakllantirish va rivojlantirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Chizmachilik darslarida ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanish uchun, birinchi navbatda, fanning mazmunini o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ular uchun qiziqarli tarzda tuzilishiga alohida e'tibor qaratish kerak. Bularni amalga oshirish uchun mavzularni yoritishda, o'quvchilar bajaradigan grafik mashqlar va topshiriqlarni tuzishda hozirgacha shakllanib, dogmatik ko'rinishga kelib qolgan qoliplardan voz kechib, noan'anaviy usullardan foydalanish, o'quvchilarning qiziqishlari va ijodkorliklarini oshiradigan uslublarni izlashga to'g'ri keladi. Chizmachilik fanining xususiyatiga ko'ra bunday uslublardan, grafik mashq va topshiriqlardan foydalanish uchun katta imkoniyatlar maydoni mavjud. Lekin shularga qaramasdan hozirgacha nashrdan chiqarib turilgan darsliklardagi ma'lumotlar asosan konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi (YeSKD) dagi ma'lumotlarning qisqacha mazmunini yoritish hamda chizma bajarishning sodda usullarini bayon qilish bilan cheklanib qolmoqda.

Ma'lumki, chizmachilik fan sifatida shakllanish va rivojlanish borasida uzoq tarixga ega. Shu bois ayrim tarixiy materiallardan zamonaviy talqinda foydalanish, birinchidan, chizmachilik o'quv fanining mazmunini boyitadi. Ikkinchidan, uning milliy-tarixiy negizini mustahkamlaydi. Biroq, amaldagi, shuningdek bundan oldingi davrlarda yaratilgan darsliklarda ham chizmachilikning rivojlanish tarixi, jumladan O'zbekiston hududida chizma bajarishlar (ayniqsa, amaliy san'at namunalari misolida) sohasidagi yutuqlar darsliklarda o'zining to'liq ifodasini topmagan. Aslida esa milliy me'moriy yodgorliklarning kompozitsion yechimlari, dunyo san'atshunoslari tomonidan e'tirof etilgan girihlar va islmiy naqshlarning qurish uslublari, zamonaviy talablarni bajarishga yo'naltirilgan ijodiy xarakterdagi topshiriqlarni o'quv jarayoniga kiritilishi chizmachilik darslarida o'quvchilarning grafik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi chizmachilik fanini o'qitilishi va ularning mazmunlarini o'rganib, tahlil qilishimiz jarayonida biz maktab o'quvchilarining fanni o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir qiladigan qator omillarni aniqladik. Ularga quyidagilar kiradi:

-mumta'lim maktablarida tahsil olayotgan aksariyat o'quvchilarning maktab chizmachilik kursiga qiziqishlarining pastligi;

- turli sabalarga ko'ra maktablardagi chizmachilik darslarini ba'zi hollarda mutaxassis bo'lmagan o'qituvchilarning o'qitishi;



- maktab ma'muriyati va o'qituvchilarning chizmachilik faniga jiddiy munosabatda bo'lmaliklari natijada o'quvchilarning mazkur fan asoslarini o'zlashtirish darajalarining pastligi;

- chizmachilik fani ("Chizma geometriya elementlari" va "Muhandislik grafikasi") ni o'rganish o'quvchilardan maxsus qobiliyat va malakalar (fazoviy tasavvur, masala yechimiga ijodiy yondashish, mustaqil ishlash ko'nikmalari, tahlil qila bilish va h.k.) ni egallaganlikni talab qiladi. Agar fan o'qituvchisi ularni shakllantirish metodlarini egallamagan bo'lsa (nomutaxassis o'qituvchi) chizma bajarishning oddiy usullariga o'quvchilarni o'rgatishning o'zi katta muammoga aylanadi.

Chizmachilik fanidan amaldagi fan dasturi, darslik hamda kam sonli metodik ta'minot vositalari asosan chizma standartlarining bayoni va ularga tegishli misollarni yoritish shakliga kelib qolgan. Darslikdagi mavzular qisqa yoritilgan bo'lib, ularning amaliy qo'llanilishiga oid ma'lumotlar nihoyatda kam berilgan. Bu ahvol o'quvchilarning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarining pasayishiga asosiy sabablardan biri sifatida qaralishi mumkin. Yuqorida aytilganlarni e'tiborga olib endilikda chizmachilik fanidan dastur va darsliklardagi mavjud holatni mazmun jihatidan qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Birinchidan, chizmachilik fani o'zining xususiyatiga ko'ra, birinchi navbatda, o'quvchilarning politexnik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, dars mashg'ulotlarining asosiy qismi amaliy mashg'ulotlar shaklida tashkil qilinishi hamda o'quvchilarning grafik ish bajarishlari orqali ularda shu fan asoslarini o'zlashtirib borishlari ko'zda tutiladi. Nazariy ma'lumotlarning asosiy qismi, odatda, amaliy mashg'ulotlarning boshlanishida berilib, ular grafik ishlarni bajarish orqali mustahkamlab boriladi. Bu tartib ko'p yillik pedagogik tajribalar orqali umume'tirof etilgan aksioma hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik o'qitish sifatini oshirish uchun, birinchi navbatda, namunaviy fan dasturi mazmunini chizmachilikning amaliy yo'nalishlari bilan boyitib, darslikdagi materiallarni shunga moslashtirish zarur. Bu ishlarga hamohang tarzda sohaga oid zamonaviy metodik ta'minot kompleksini yaratish grafik ta'lim samaradorligining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Metodik ta'minot chizmachilik o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olib quyidagi tarkibiy qismlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq:

- chizmachilik fani bo'yicha uning amaliy ahamiyati, shakllanish tarixi, chizmachilikda milliylik komponentlari, O'zbekiston hududidagi o'ziga xos grafik tasvirlar kabi ma'lumotlar o'quvchilarga tushunarli, sodda bayon qilingan yangi nazariy ma'lumotlar bazasi;

- o'quvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlari hisobga olinib, amaliy ahamiyatga ega yangi turdagi mashqlar va grafik topshiriq variantlari;



- chizmachiligidan o'quvchilarning bilimni nazorat qilish, shuningdek o'quvchilarning o'zlari bilimlarini nazorat qilishga xizmat qiladigan dasturiy ishlanmalar.

Chizmachilik darslarini tashkil qilishda kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur.

Chizmachilik fani haqli ravishda politexnik bilimlarning asosi hisoblab kelinadi. Har qanday zamonaviy konstruktor, arxitektor, turli sohalarda faoliyat ko'rsatadigan muhandislarning faoliyati bevosita chizmalar bilan ish ko'rishiga to'g'ri keladi va ularga bog'liq bo'ladi. Faoliyati bu kasblardan uzoq bo'lgan insonlardan ham minimal darajadagi grafik madaniyatni egallaganlik talab qilinadi. Shu bois o'quvchilar ham, turli kasb egalari ham ma'lum darajada grafik savodxonlikka ega bo'lishlari kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi chizmachilik fanidan taklif qilinayotgan yangi o'quv-metodik kompleksning o'ziga xos jihatlari:

- mavzularni yoritishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olib mustaqil o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratish, o'rganiladigan materiallarning amaliy qo'llanilish sohaslarini tushuntirib borish;

- o'quvchilarning politexnik bilimlarini rivojlantirishga yo'naltirilganlik;

- o'quvchilarda konstruksiyalash va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilganlik;

- o'quvchilar uchun grafika tarixi, rivojlanishi va zamonaviy ahvoliga oid materiallar bilan boyitilgan "ISh DAFTARLARI"ning taklif qilinishi. Bu ish daftarlarining ta'lim jarayoniga kiritilishi grafik tasvirlarni bajarishga sarflanadigan vaqtning keskin kamayishiga xizmat qiladi va ta'lim samaradorligiga ko'maklashadi.

- o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi "Chizmachilik" elektron darsligini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### ***Xulosa qilib aytganda:***

- umumta'lim maktablarida o'qitiladigan amaldagi chizmachilik fani mazmuni, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan texnik va grafik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish uchun yetarli emas;

- chizmachilik fanini o'qitishda metapredmet kompetensiyalar va fanlararo integrativ yondoshuvlarning kamligi;

- chizmachilik fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi;

- chizmachilik fani mazmuniga muxandislik, quruvchi-injener va boshqa shu kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarining kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi;

- o'quv jarayonini tashkil etish va uni o'tish sohasidagi kamchiliklar.

Bu pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash, chizmachilik fani o'qituvchilari va mentorlari uchun masofadan o'qitish kurslarini joriy



etilmaganligi chizmachilik fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilanishni taqazo etmoqda.

***Amaldagi joriy holati va mavjud muammolar:***

- chizmachilik fanini o'quv metodik ta'minoti (o'qituvchi kitobi, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va b.) yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

- o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, fan bo'limlari va mavzularining o'qitish ketma-ketligi hamda murakkablik darajasini qaytadan ko'rib chiqishga ehtiyojning borligi;

- chizmachilik o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish;

- chizmachilik fani yo'nalishida fundamental va amaliy tadqiqotlarga asoslangan zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish;

- chizmachilik o'qitishning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalar ijoriy etish;

- o'quvchilar darsliklardagi o'quv materiallarni o'zlashtirishda bilishga qiziqish, ishtiyoqni hosil qiladigan o'yin va mashqlar, art-texnologiyalar o'z aksini topmaganligi;

- chizmachilik fanini o'qitishda o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishlash, mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanib o'qitish yo'lga qo'yilmaganligi;

- chizmachilik fanini o'qitishda nazariy amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish hamda ijodkorlik ishlarini tashkil qilishda chizmachilik xonasining moddiy-texnik ta'minotiga kam e'tibor qaratilayotganligi;

- chizmachilik fanini o'qitishda mavzular kesimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasining ishlab chiqilmaganligi;

- STEAM zamon talablari asosida xalqaro miqyosida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda umumta'lim va umukasbiy fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvga e'tibor qaratilmaganligi;

- chizmachilik fani me'yoriy hujjatlarida baholash mezonlarining faqat bitiruvchi kompetensiyasi uchun ishlanganligi va multimedia ilovalari, didaktik materiallarning yetishmasligi, darsliklar asosida uning metodikasini qayta ishlab chiqish talab etiladi;

- chizmachilik fani mazmuniga texnik dizayn, loyihalash va konstruksilash kabi O'zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo'ladigan elementlarning kiritilmaganligi bo'lajak maktab bitiruvchisi va mutaxassislarining kasbiy sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

- o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun o'quvchilarda zamonaviy grafik bilim sohasidagi tayanch va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan jihoz va uskunalarning yetishmasligi;

- chizmachilik fani moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy didaktik materiallar va jihozlari bilan jihozlanmaganligi;



- pedagoglarning metodik ta'minotini yaxshilash, chizmachilik fani o'qituvchilari uchun masofadan o'qitishning yangi shakllari joriy etilmaganligi;

- mavjud oliy ta'lim muassasalarida chizmachilik fani yo'nalishida pedagog-kadrlarning sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi, ularni o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos kompetent kadrlarni tayyorlashni taqazo etmoqda.

### **3-bob. CHIZMACHILIK TA'LIM KONSEPSIYASINING ASOSIY MAQSADI VA RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI**

#### **5. Chizmachilik ta'limini rivojlantirishning strategik maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:**

- chizmachilik ta'limini mehnat bozori talablari asosida modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish;

- bitiruvchilarda chizmachilik ta'limi davomida o'zlashtirilgan va egallagan grafik bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil ravishda amaliy faoliyatida qo'llash, kasb tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetensiyalarini shakllantirish;

grafik savodxonlik, tanqidiy, kreativ va tizimli fikrlash, mustaqil qaror qabul qila olish, o'z intellektual qobiliyatlarini namoyon eta olish va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish.

#### **6. Chizmachilik ta'limini rivojlantirish quyidagi vazifalarga asosan amalga oshiriladi:**

- barcha ta'lim bosqichlarida chizmachilikni o'qitishning izchillikka asoslangan tizimini yaratish;

- chizmachilikni o'qitishning ilmiy-metodik ta'minotini rivojlantirish;

- chizmachilikni o'qitish tizimining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy o'qitish vositalari va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- chizmachilikni o'qitish jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

- chizmachilikni o'qitish tizimi maqomini uning fundamental bilimlarning inson yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liqligini hamda atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish hamda umumiy ta'lim mazmuni o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlashdagi asosiy rolga munosib ravishda o'zlashtirishga erishish;

- umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'qitilayotgan chizmachilik fanlarining ta'lim jarayonini, ularning o'zaro uzviyligini ta'minlash;

- fan doirasida o'rgatiladigan va mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun istiqbolli deb tanlangan mutaxassislarni tayyorlashning tayanch bosqichi sifatida xizmat qilishi;



- kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va inson potensialidan samarali foydalanish;
- malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;
- fanning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;
- ta'limning barcha bosqichlarida fan bo'yicha olimpiadalarni tashkil etish Nizomini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
- iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash, baholash va rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish, konstruktorlik va arxitektura-loyihalash va boshqa shu kabi ijodiy ishlar bo'yicha ko'rik-tanlov va ko'rgazmalarini tashkil etish;
- intellektual salohiyatning mehnat bozoridagi o'rni haqidagi madaniyatni shakllantirish;
- zamonaviy standartlarga mos keluvchi chizmachilik fanining turli yo'nalishlarida tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish va joriy etish;
- o'quvchilarda loyihalash va tadqiqot ishlari madaniyatini shakllantirish;
- ta'limning ilg'or amaliyotini ommalashtirish va chizmachilik fani ta'limida o'qitish shakllarini takomillashtirish.

## **1-§. Chizmachilik ta'limining o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqishda uzviylikni ta'minlash**

### **7. Chizmachilik ta'limining o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:**

- ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida chizmachilik ta'limi bo'yicha DTS ni ishlab chiqish;
- chizmachilik ta'limi bo'yicha uzviylikni e'tiborga olgan holda ta'lim bosqichlari uchun alohida tartibda bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;
- chizmachilik ta'limi tizimi o'quv yuklamalarining minimal hajmi hamda ularning taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;
- chizmachilik ta'limi tizimi bo'yicha o'quv-metodik majmualarni (darslik, o'quv qo'llanma, masala va mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi va boshqa) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish;
- chizmachilik ta'limi tizimi mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;
- xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablarini ishlab chiqish.



## **8. Chizmachilik ta'limi bo'yicha o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:**

o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

o'quvchi-yoshlarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

o'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

o'quvchi-yoshlarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

## **9. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:**

### **a) didaktik talablar:**

- o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;
- matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;
- qiziqarli, hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

rasmlar ko'rinishidagi ilustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

### **b) ilmiy-metodik talablar:**

- fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;
- o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;
- mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;
- milliy g'oya va mafkuraga zid bo'lmagan tegishli ilustrasiyalar bilan boyitilishi;

savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

sanalarni keltirishda mavhumlikka yo'l qo'yilmasligi;



kasbga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

**v) pedagogik-psixologik talablar:**

keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, o'quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda chizmachilik fani bilan bog'liq voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

o'quv fani mavzularining o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

o'quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

**g) estetik talablar:**

imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

matnlar o'quvchi-yoshlarga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibli ta'minlanishi;

rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

**d) gigiyenik talablar:**

matn va ilustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos bo'lishi;

harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

## **2-§. CHIZMACHILIK FANI TA'LIM TIZIMINING MODDIY-TEXNIK TA'MINOTINI MUSTAHKAMLASH**

### **10. Chizmachilik ta'limining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:**

"Zamonaviy maktab" davlat dasturi doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy maktab namunasiga moslashtirishni ta'minlash lozim. Buning uchun:

- o'quv xonalarini mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o'quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska, planshet va multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlashni ta'minlash, ularning o'z vaqtida yangilab borish choralari ko'rish;

- ta'lim jarayonini tashkil qilish uchun o'quv xonalarining jihozlanish darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv qurollari bilan ta'minlash;





- o'tkaziladigan dars mashg'ulotlar uchun kerakli xom ashyo materiallarini davlat budjeti, xomiy tashkilotlar va ta'lim muassasasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- davr talabi hamda o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda dolzarb kasblarning birlamchi asoslarini o'rgatish uchun ilmiy va kasbiy to'garaklar, shu jumladan robototexnika, dasturlash bo'yicha yo'nalishlari moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;

- o'quv mashg'ulotlarining moddiy-texnik ta'minoti bazasidan oqilona foydalanish va asrab-avaylash;

- xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qilgan holda foydalanish.

Chizmachilik fanini o'qitish jarayonida o'quv-metodik ta'minoti tarkibiga quyidagilar kiradi:

- chizmachilik fanidan Davlat ta'lim standarti;

- chizmachilik fani o'quv dasturi;

- o'quv kurslarining darslik va o'quv qo'llanmalari;

- elektron darsliklar, elektron o'quv qo'llanmalar;

- fan o'qituvchilari uchun metodik qo'llanmalar;

- o'quvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanmalar;

- model va maketlar tayyorlashda zaruriy asbob-uskunalar;

- o'quvchilar uchun didaktik tarqatma materiallar;

- elektron ishlanmalar, ko'rgazmali plakatlar, video mahsulotlar (multimediya mahsulotlari, interfoal doskalar, virtual laboratoriyalar, o'quv filmlar, slayd-prezentatsiyalar, namoyish eksperimentlarni ko'rsatuvchi animatsiyalar).

Chizmachilik fanining o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analarning iqtisodiyot talablariga mos ravishda chizmachilik fani bo'yicha Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish;

- chizmachilik fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

- umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasida belgilangan chizmachilik fani o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;

- tayanch o'quv rejaga muvofiq chizmachilik fanining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish;

- chizmachilik fani bo'yicha sinflar kesimida o'quv-metodik majmualarni (darslik, grafik vazifalar uchun ishi daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, o'quvchilar uchun o'quv-metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish;



- o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan amaliy topshiriqlar bazasini yaratish;
- chizmachilik fanining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;
- chizmachilik fanini o'qitishda alternativ adabiyotlardan foydalanishni yo'lga qo'yish.

### **3-§. CHIZMACHILIK TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY USULLARNI JORIY ETISH ORQALI INNOVATSION INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH**

#### **11. Chizmachilik ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:**

- zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

- ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

- chizmachilik ta'limi bo'yicha elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

- nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi platformalardan (Edu Market interfaol-virtual ta'lim dasturi) hamda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

- masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga ta'lim tizimi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualarni, elektron ta'lim resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

Har bir pedagog o'z kasbiy faoliyatida kompyuter imkoniyatlaridan erkin va faol foydalanishni, dars jarayonida tatbiq qilishini nazarda tutadi.

Chizmachilik darslarida quyidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga e'tibor beriladi:

- yangi mavzuni bayon etish yoki mustahkamlash uchun slaydlar;



– yangi mavzuni bayon qilish uchun har biri 5–10 minutli bo‘lgan o‘quv filmlar, video tasvirlar, multimediyalar;

– turli mashqlarni, amaliy topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallangan o‘yinli multimediyalar.

chizmachilik ta‘limning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta‘lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish.

## **12. Chizmachilik ta‘limining innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:**

- o‘quvchi-yoshlar tomonidan yaratilgan ijodiy loyiha ishlari natijalarini tijoratlashtirish ishlarini bosqichma-bosqich joriy etish;

- pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan kelib chiqqan holda o‘qitish texnologiyalari tatbiq etish markazlarini tashkil etish hamda ularni faoliyat olib borishlarini ta‘minlash;

- startap loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori iqtidorli o‘quvchi-yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag‘batlantirish;

- iqtidorli o‘quvchi-yoshlarni aniqlash, chuqurlashtirilgan (variantiv) ta‘lim dasturlari asosida o‘qitish, “Ustoz-shogird” tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga biriktirish;

- chizmachilik fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘lim tizimida fan olimpiadalarini tashkil etish va iqtidorli o‘quvchi-yoshlar ishtirokini oshirish;

- innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda umumiy o‘rta, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim hamda oliy ta‘lim tizimlari bilan uzviylikini ta‘minlash.

## **4-§. CHIZMACHILIK TA‘LIMINI TASHKIL ETISHDA MAKTABGACHA, UMUMIY O‘RTA, PROFESSIONAL VA OLIY TA‘LIM TIZIMLARINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI**

### **13. Chizmachilik fanlarining umumta‘lim fanlari bilan o‘zaro integratsiyasi va o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:**

- jadal rivojlanayotgan asrda innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun yangi bilimlarni o‘zlashtirish va amalda qo‘llashning tobora ortib borayotgan ahamiyati milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va milliy xavfsizlik strategiyalarining samaradorligini belgilovchi omillardan kelib chiqqan holda integratsiyalash tizimini ishlab chiqish va yo‘nalishlarini belgilash;

- globallashtirish davrida mehnat bozori talablariga mos, nostandart masalalarni ijodkorlik yondoshuvi asosida yecha oladigan o‘quvchilarni tarbiyalash masalasini amalga oshirish uchun muayyan fikrlash modellari zarur, o‘quvchi-yoshlarda bunday fikrlash modellarini shakllantirishda integratsiyalash funksiyalarini belgilash;



- yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'limda innovatsiyalar, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o'quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan integratsiyalash tendensiyalarini aniqlash;

- grafik ta'limni rivojlantirish doirasida zamonaviy jihozlar, kasblar dunyosi bilan tanishish, o'quvchi-yoshlarni turli ijtimoiy sohalarda mustaqil ravishda mehnat qiladigan yo'nalishini topish, ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirishda integratsiyalash darajalari va amalga oshirish shakllarini ishlab chiqish.

#### **14. Chizmachilik fanlarini o'qitishda fanlararo bog'liqlikni tashkil etuvchi o'quv modullari quyidagilarni tashkil etadi:**

- buyum va narsalarning geometrik va konstruktiv tuzilishini, ularning ishlab chiqarish hamda texnologik jarayonlarini o'rganishda boshqa aniq va tabiiy fanlar bog'liqligini hisobga olish va amalga oshirish;

- sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

- grafik amallar va grafik tasvirlar;

- tasvirlanayotgan buyum va narsalarning tarkibi, materiallari, ularning shartli tasvirlarini o'rganish;

- modellashtirish va loyihalash ishlarini ta'limga tatbiq etish;

- yangi g'oya asosida mavjud buyum va konstruksiyalarni qayta loyihalash orqali uning grafik yechimini yaratish;

- loyiha ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish.

#### **15. Chizmachilik fanlarini o'qitishda variativ o'quv modullari zamonaviy ishlab chiqarishning quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:**

texnik dizaynerlik;

konstruktorlik;

loyihalash bo'yicha.

#### **16. Chizmachilik ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:**

Grafik ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini harakatlantiruvchi kuch, O'zbekiston iqtisodiyotining tayanchi hisoblanadi. Iqtisodiyot sohasidagi globallashtirish, ijtimoiy madaniy o'zgarishlar transformatsiyasi kadrlar tayyorlashda sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, grafik ta'lim maqomi va nufuzini oshirish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida ijodkorlik muhitini shakllantirish, "Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni aniqlash", tuman, viloyat, respublika miqyosida intellektual yetuk o'quvchi-yoshlar seleksiyasini tashkil etish tizimini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur tizim:

- ta'lim muassasasi axborot muhitida o'quvchi-yoshlar tomonidan bajarilgan loyihalar, ularning natijalarini qayd etish uchun sharoit yaratish;



- ochiq taqdimotlar (jumladan, ixtisoslashgan portal va ijtimoiy tarmoqlar), musobaqalar, konkurslar orqali o'quvchi-yoshlarga innovatsion loyihalarni taqdim etish;

- grafik ta'limni ommalashtirish uchun mashhur ixtirochilar, olimlar, konstruktorlar, arxitektorlar, dizaynerlar ishtirokida muntazam tanlovlar o'tkazish;

- ta'limning barcha bosqichlarida fan bo'yicha Respublika olimpiadalarini tashkil etish;

- musobaqalarni jamoa bo'lib ishlash tamoyillari, shaxslararo munosabatlar va o'zaro muloqat etikasi asoslarini o'zlashtirishga imkon beruvchi shakllarda tashkil etish;

## **5-§. KADRLARNI TAYYORLASH VA INSON POTENSIALIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

### **17. Kadrlarni tayyorlash va inson potensialidan samarali foydalanish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:**

Grafik ta'limning mazmun va metodlarini takomillashtirish uchun muhandislik grafikasi siklidagi fanlar (chizma geometriya, chizmachilik va kompyuter grafikasi) bo'yicha ishlab chiqilayotgan o'quv me'yoriy hujjatlar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va resurslarini, masofadan o'qitish texnologiyasini qo'llash va fanning rivojlanish haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishni inobatga olgan holda, malakasini oshirish va qayta tayyorlash qo'shimcha kasbiy ma'lumot berishni talab qiladi.

Bu jarayon quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- grafik ta'lim yo'nalishi bakalavriat darajasi uchun ta'lim dasturlarini umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlari DTS va o'quv dasturidan kelib chiqqan holda tubdan yangilash;

- muhandislik grafikasi doirasida o'quv fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilarni masofadan va aralash usulda integratsiyalashgan malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- maxsus kompetensiyalarga hamda grafik ta'lim sohasida tajribaga ega kasb ustalarini tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish;

- grafik ta'lim sohasida tajribali o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish;

- tegishli lavozim, kasb va mutaxassislik bo'yicha kvalifikatsiya ma'lumotnomalarida ko'rsatilgan malaka talablarini hisobga olgan holda ta'lim sohasida zamonaviy chizma geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasiga oid bilimlar bilan tanish, texnik qurilmalar bilan ishlash va loyiha ishlari tajribasiga ega shaxslarni kasbiy qayta tayyorlash;

- umumiy o'rta, professional ta'lim tizimlari bitiruvchilarining zamonaviy o'qitish texnologiyalar bo'yicha yuqori salohiyat darajalarini aniqlash, uni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish maqsadida milliy, xalqaro va hududiy ko'rgazmalarida ishtirok etish uchun



ta'lim muassasalarini grant asosida qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish;

- "Ustoz-shogird maktabi"ni tashkil etish va rivojlantirish.

#### **4-bob. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR**

18. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik ta'limini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan g'oyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish keng qamrovli va ma'suliyatli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlari asosida yangi darsliklarni yaratish va nashr etish, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni yaratish va nashr etish, o'quvchilar uchun chizmachilikka oid qo'shimcha adabiyotlarni yaratish va erkin savdo uchun nashr etish, dars jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng tarzda foydalanishni tashkil etish lozim bo'ladi.

Konsepsiya g'oyalarini hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlarini chizmachilik ta'limiga joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Konsepsiya g'oyalarini chizmachilik ta'limi jarayoniga to'liq tatbiq etilishi umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilikning o'qitilishini rivojlantirishga, chizmachilik ta'limi samaradorligini oshirishga, mamlakatimizning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

- konsepsiya umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartida belgilangan talablar uchun asos bo'ladi;

- konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga keng joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi;

- chizmachilik fanini o'qitish bosqichlari, o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni va malaka talablari me'yorlari aniqlashtiriladi;

- o'quvchilar tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'ladi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalanadi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi mezonlarni biladi, hayotida ularni qo'llay oladi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallaydi va hayotiy faoliyatida mustaqil qarorlar qabul qila oladi;

- STEAM (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san'at, Mathematics – matematika)



ta'limini joriy etish orqali o'quvchilarining fanlar integrasiyasi asosida savodxonlik darajasini oshiradi;

- xalq ta'limi tizimida o'quvchilarning bilim darajasini baholashda ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar (PISA, TIMSS)da O'zbekiston Respublikasining doimiy ishtiroki ta'minlanadi;

- chizmachilikni o'qitish–maktab bitiruvchilarining ilmiy-texnik savodxonligini, ko'nikmalarini va kompetensiyalarini shakllantirish, shu bilan birga zamonaviy texnik tizimlardan professional darajada foydalanish, loyihalashtirishni o'rgatadi va umumiy o'rta ta'limning amaliy jihatlarini kuchaytirishga yordam beradi;

- chizmachilikni o'qitishda AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarda intellektni oshiradi;

- fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tadbiqu orqali o'quvchilarning o'quv-tadqiqotchilik va ixtirochilik qobiliyatlari rivojlantiriladi;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashga va o'zini jismoniy chiniqtirish uchun o'quv va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

#### **maktab bitiruvchilarida**

- chizmachilikka oid bilimlarni tushunish, qo'llash, nazorat qilish, mukammallashtirish va baholash;

- loyihalashtirish, izlanish, boshqarish kabi universal faoliyatni o'zlashtirish;

- qarama-qarshiliklar masalasini yechish mahoratini namoyon qilish orqali samarador va to'g'ri texnologiyalarni tanlash;

- nostandart fikrlash va faoliyat yuritish ko'nikmasini shakllantirish orqali yangi grafik bilimlarga asoslangan xizmatlar uslublarini yaratish va h.k.;

- ta'lim jarayonida har xil kasbiy ko'nikmalarni egallash orqali mustaqil hayotda zarur bo'ladigan bo'lajak kasbni to'g'ri tanlash;

- mehnat qilish, yangi bilimlarni egallash, mukamallikka erishish uchun o'z ustida mustaqil ishlash va amaliy faoliyat yuritish;

- tez o'zgaradigan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlarga moslashuvchan, noaniq vaziyatlarda mustaqil ta'lim olishga tayyor o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash.

Chizmachilik fanini o'qitishni yangi bosqichga ko'tarish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik ta'lim jarayoniga hozirgi zamon grafik tasvirlash yutuqlaridan foydalanishni tatbiq etish;

- maktab o'quvchilarini Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarligini oshirish.

- chizmachilikka oid bilimlarni berish orqali o'quvchilarni kasbga yo'llash;



- zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali o'qitish usullarini takomillashtirish;

- ta'lim sifatini oshirish bitiruvchilarda loyihachilik va konstruktorlik ishlarining turli tarmoqlarini yangi bosqichga olib chiqishga imkoniyat yaratadi.

ЎОММХА





## CHIZMACHILIK FANI BO‘YICHA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM BITIRUVCHILARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi**

Bosh va yozma harflar hamda raqamlarning yozish qoidalarini bajarishda ijodiy yondashadi;

- grafik ishlarni toza va aniq bajaradi;
- geometrik shakllarga ijodiy yondashib, girix chizish usullarini bajaradi;
- markaziy va parallel proeksiyalash usullarini tozalik va aniqlikka asoslangan holda bajaradi;
- modelni bitta, o‘zaro perpendikulyar ikkita proeksiyalar tekisligiga proeksiyalashga ijodiy yondashadi;
- tekis shaklning proeksiyalariga oid grafik ishini toza va aniq bajaradi;
- silindr, konus, shar va piramidalarning proeksiyalarini chizish usullarini toza va aniq bajaradi;
- aylanish sirtlari shaklining yoyilmalarini toza va aniq bajaradi;
- bosh, asosiy va mahalliy ko‘rinishlarni tozalik va aniqlik bilan bajaradi;
- model ko‘rinishlarini yangi usullarini chizadi;
- detalning frontal dimetrik va izometrik proeksiyalarini bajarishda aniqlik va tozalikka rioya qiladi;
- eskizlarni chizish bosqichlarini bajarishda tozalikka rioya qiladi;
- texnik rasmni chizish qoidalariga ijodiy yondashadi;
- kesimlar haqida olgan ma’lumotni grafik ish bajarishda qo‘llaydi;
- kesim turlarini farqlaydi;
- kesimda shartlilik va soddalashtirishlarga oid grafik ishlarni tirishqoqlik bilan bajaradi;
- qirqimlar haqida olgan ma’lumotni grafik ish bajarishda qo‘llaydi;
- ko‘rinishning yarmi bilan qirqimning yarmini birlashtirish usullarini bajarishda hamkorlikda ishlaydi;
- loyihalash ishlariga ijodiy yondashadi;
- detalning fazoviy holatini o‘zgartirishga ijodiy yondashadi;
- mashinasozlik chizmalarini konstruktorlik ishlariga ijodiy yondashadi;
- kmpyuterda buyumlarni loyihalashni yangi usullarini ishlab chiqadi;
- komyuterda burchak yasash va ularni teng bo‘laklarga bo‘lish, muntazam ko‘p burchaklar yasash usullariga ijodiy yondashadi;
- qurilish chizmalarini chizishda jamoada hamkorlik qiladi;
- qurilish chizmalarini zamonaviy ko‘rinishlarini chizadi.

### **O‘z-o‘zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**

Grafik ishlar bajarishda ish quollaridan to‘g‘ri foydalanadi;

- geometrik shakllar asosida girix chizish usullarini qo‘llaydi;
- grafik ishlar bajarishda ish quollaridan to‘g‘ri foydalanadi;
- geometrik shakllar asosida girix chizish usullarini bajaradi;



grafik ishlar bajarishda ish quollaridan to'g'ri foydalanadi;  
aksonometrik proeksiyalarni joylashishini tasavvur qiladi;  
tekis shakllarning frontal ko'inishi haqida tushunchaga ega bo'lib, tekis shakllarni izometriyada yasash usullarini o'rganadi;  
detalning frontal dimetrik proeksiyasiga oid grafik ishni sodda usulda bajaradi;  
detalning izometrik proeksiyasiga oid grafik ishni sodda usulda bajaradi;  
o'quv modelining eskizini chizishga kreativ yondashadi;  
chizmachilik fanini jamiyat taraqqiyotidagi roliga munosabat bildiradi;  
kesim va qirqimlarni bir-biridan farqlaydi;  
qirqimni turlarga ajratadi;  
ko'rinishning qismini qirqimning qismi bilan birlashtirib tasvirlash usullarini grafik ishlarda bajaradi;  
aksonometrik proeksiyalarda izometriyada qirqim bajarishda muammoni yechadi;  
frontal dimetriyada qirqim usullarini bajarishda ish quollaridan to'g'ri foydalanadi;  
detalning shaklini konstruktiv o'zgartiradi;  
grafik ishlar bajarishda ish quollaridan to'g'ri foydalanadi;  
mashinasozlik chizmalarining qo'llanilishi va konstruktorlik hujjat turlarini bir-biridan ajratadi;  
mashinasozlik chizmalarini chizishda ish quollaridan to'g'ri foydalanadi;  
kompyuterda to'g'ri chiziq va tekis shakllarni yasashning yangi usullarini topadi;  
kompyuterda buyumlarni konstruksiyalashni yangi usullarini ishlab chiqadi;  
bosh plan chizish orqali o'quvchilarning grafik savodxonligi oshadi;  
qurilish chizmalarini chizishda ish quollaridan to'g'ri foydalanadi.

### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Chizmachilik fanidan kundalik hayotida foydalanadi;  
chizmani taxt qilish, standartlar, formatlar, masshtab haqida ma'lumotlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llaydi;  
chiziq turlari va o'lcham qo'yish qoidalari asosida grafik ish bajaradi;  
chizma shriftlari va o'lcham qo'yish qoidalari asosida grafik ish bajaradi;  
geometrik yasashlar, turli xil chiziqlar chizish usullaridan grafik chizishda foydalanadi;  
geometrik shakllar asosida girix chizish usullarini bajaradi;  
to'g'ri, o'tkir va o'tmas burchak tomonlarini tutashtirish usullarini bajaradi;  
ikki aylanani uchinchi aylana yordamida tutashtirish usullarini bajaradi;



markaziy va parallel proeksiyalash usullarini bajaradi;  
oktant va epyurni bir-biridan ajaratadi;  
to'g'ri chiziqning proeksiyalariga oid grafik ishni to'g'ri bajaradi;  
tekis shaklning proeksiyalariga oid grafik ish bajaradi;  
modelni bitta, o'zaro perpendikulyar ikkita proeksiyalar tekisligiga proeksiyalaydi va tekis chizma (epyur) hosil qiladi;  
geometrik jismlarning proeksiyalarini yasash usullarini bajaradi;  
ko'pyoqliklarning yoyilmalar mavzusiga oid grafik ishni bajaradi;  
silindr, konus, shar va piramidalarning proeksiyalarini chizish usullarini bajaradi;  
aylanish sirtlari shaklining yoyilmalarini grafik ishda qo'llaydi;  
asosiy, bosh va mahalliy ko'rinishlarni bir-biridan farqlaydi;  
modelning ko'rinishlariga oid chizish usullarini bajaradi;  
oddiy modelning chizmasini tahlil qiladi;  
oddiy modelni geometrik jismlarga ajratadi;  
chizmalarni o'qish tartibi va qoidalarini grafik ishlarda qo'llaydi;  
aksonometrik proeksiyaning joylashishini biladi;  
tekis shakllarning frontal ko'rinishini farqlaydi  
tekis shakllarni izometriyada yasash usullarini qo'llaydi;  
detalning frontal dimetrik va izometrik proeksiyalariga oid grafik ish bajaradi;  
aksonometrik proeksiyalarga oid amaliy mashg'ulot bajaradi;  
eskizlarni chizish bosqichlarini bajaradi;  
o'quv modelining eskizini chizadi;  
texnik rasmni chizish qoidalariga amal qiladi;  
grafik ish bajarishda kesimlar haqidagi ma'lumotdan foydalanadi;  
kesim turlarini bir-biridan ajaratadi;  
kesimda shartlilik va soddalashtirishlarga oid grafik ishni bajaradi;  
grafik ish bajarishda qirqimar haqidagi ma'lumotdan foydalanadi;  
kesim va qirqimni bir-biridan farqlaydi;  
qirqim turlaridan muqobil foydalanadi;  
oddiy qirqimlar va ularning chizmalarda belgilanishini biladi va grafik ishida qo'llaydi;  
ko'rinishning yarmi bilan qirqimning yarmini birlashtirish usullarini grafik ishlarda qo'llaydi;  
ko'rinishning qismini qirqimning qismi bilan birlashtirib tasvirlash usullari bo'yicha grafik ish bajaradi;  
aksonometrik proeksiyalarda, izometriyada qirqim bajarish usullarini grafik ishda amalga oshiradi;  
frontal dimetriyada qirqim bajarish usullarini grafik ishda amalga oshiradi;  
kesim va qirqim talab qiladigan detallarning eskizini bajaradi;  
eskiz chizishga oid grafik ishlarni bajaradi;  
texnik rasm chizishga oid grafik ishlarni bajaradi;



chizmalarda shartlilik va soddalashtirish usullarini grafik ishda bajaradi; detalning shaklini konstruktiv o'zgartirish loyihalariga oid grafik ish bajaradi;

loyihalashga doir grafik masalalar bajaradi;

detalning fazoviy holatini o'zgartiradi va qayta loyihalashga oid ijodiy grafik ishlar bajaradi;

mashinasozlik chizmalarini bajaradi;

buyum va konstruktorlik hujjatlarni bir-biridan farqlaydi;

ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarni bir-biridan farqlaydi;

ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarga oid amaliy ko'nikmalarini kundalik hayotida qo'llaydi;

ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarga oid grafik ishlarni bajaradi;

rezbaning turlarini bir-biridan ajratadi;

oddiy yig'ish chizmalarini o'qiydi va kundalik hayotida qo'llaydi;

konstruksiyalashga doir masalalarni bajaradi;

kompyuterda to'g'ri chiziq va tekis shakllarni yasash usullarini bajaradi;

kompyuterda burchak yasaydi va ularni teng bo'laklarga bo'ladi, muntazam ko'p burchaklar yasaydi;

kompyuterda buyumlarni konstruksiyalash usullarini bajaradi;

qurilish chizmalari, binoning plani hamda qirqim va fasad haqidagi ma'lumotlardan kundalik hayotida foydalanadi;

qurilish chizmalarini o'qiydi va ularga o'lchamlar qo'yish qoidalariga amal qiladi;

bosh plan chizish bo'yicha amaliy mashg'ulot bajaradi.



## UMUMIY O'RTA TA'LIM O'QUVCHILARIGA TASVIRIY SAN'AT FANIDAN QO'YILADIGAN TALABLAR (1-7-SINFLAR)

Kodi

### 1-SINF

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Fasllardagi o'zgarishlarni solishtiradi va tahlil qiladi

#### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Ish qurollaridan foydalanish havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qiladi

#### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'at turlarini biladi

Bargning kuzgi ko'rinishini ranglarda ifodalaydi

Chiziq va shakllardan mustaqil tasvir hosil qiladi

Asosiy ranglarni farqlaydi

### 2-SINF

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'atda asosiy va hosila ranglardan ijodkorona foydalanadi

Amaliy san'at turlaridan zavqlanadi

Kuz faslining harakterli ranglarini va manzarasini iliq ranglarda badiiy ifodalaydi

#### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Ish qurollaridan foydalanishda havfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qiladi

Ranglar bilan ishlash jarayonida tozalikka rioya qiladi

#### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Manzara ishlashda bosqichlarga amal qiladi

Ranglar bilan ishlash usullarini amalda qo'llaydi

Rang va tuslarni bir-biridan ajratadi

Yordamchi chiziqlardan foydalaniib, naqsh turlaridan kompozitsiya yaratadi

Fasllarga oid tabiat manzarasini ifodalovchi ranglarni farqlaydi va tahlil qiladi

Mustaqil naqsh kompozitsiyasini tuzadi

Mavzuga oid (ertak, she'r) haykalchalar yasaydi

Naqsh namunalaridan nusxa ko'chiradi

### 3-SINF

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

O'zbek xalq amaliy san'ati turlarini solishtiradi va badiiy tahlil qiladi

Kulolchilik ishlarni badiiy tahlil qiladi

Yo'lsimon naqsh uchun ranglarni tanlashga ijodiy yondashadi

Plastilin bilan ishlaganda sanitariya-gigiena qoidalariga rioya qiladi

#### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Turli jihozlardan xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va oqilona foydalanadi

Ranglar bilan ishlash jarayonida tozalikka rioya qiladi

Yordamchi chiziq bilan naqsh ishlash jarayonida sanitariya-gigiena talablariga rioya qiladi

#### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Yil fasllarni ifodalovchi ranglardan to'g'ri foydalanadi

Asosiy va hosila ranglarni solishtiradi

Mavzuga oid naqsh kompozitsiyasini ishlaydi

Natyurmort janriga oid atamalarni qo'llaydi

2-3ta mevadon tuzilgan natyurmortni tasvirlay oladi

Iliq va sovuq ranglardan foydalanib, rasm (oqshom, quyosh botishi) ishlaydi

Mavzuga oid relefli haykal ishlaydi

Ertak qahramonlari haykalini yasaydi



#### 4-SINF

##### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'atning tur va janrlarini solishtiradi va hulosalaydi

Tasviriy san'atga oid atamalar yordamida tahlil qiladi

Kuzgi va bahorgi gullarning turlari, ularning rangi va shakllarini solishtiradi va tahlil qiladi

##### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Ish qurollari hamda materiallardan to'g'ri foydalanadi, sanitariya-gigiena va havfsizlik qoidalariga rioya hiladi

##### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Sport o'yinlariga oid kompozitsiya ishlaydi

Tasviriy san'at tur va janrlarini o'z faoliyatida ifodalaydi

Geometrik jismlarni (kub) perspektiva qonuniyatlari asosida tasvirlaydi

Haykaltaroshlikda inson gavdasini bosqichma-bosqich yasaydi

Animalistik janriga mos kompozitsiyalar tuzadi va ifodalaydi

O'zbek xalk ertaklari syujetlari asosida mustaqil kompozitsiya ishlaydi

Doira va kvadratlar ichida naqsh ishlaydi

#### 5-SINF

##### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Spektr ranglaridan ijodkorona foydalanadi

Tasviriy san'atning ifodaviy vositalriga ijodiy yondashadi

Turli koloritda ishlangan rangtasvir asarlarini badiiy tahlil qiladi

Tasviriy san'atning tur va janrlaridagi san'at asarlarini badiiy ijodiy idrok etadi

##### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasvir ishlash jarayonida ish qurollaridan to'g'ri foydalana oladi va sanitariya-gigiena havfsizlik qoidalariga rioya qiladi

##### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'atning ifodaviy vositalarini qo'llagan holda tasvir yaratadi

Chizish bosqichlari, perspektiva qoidalariga rioya qilgan holda rangtasvir va grafikada natyurmort ishlaydi

Plastilin yoki loydan harakterli kayfiyatdagi portretni relief usulida ishlaydi

Turli janrlarda amaliy ish bajaradi

Rangtasvir va grafikada manzara ishlashda perspektiva qonuniyatiga va bosqichlarga amal qilib rasm ishlaydi

Tabriknoma, taklifnoma, devoriy gazeta eskizlarini chizadi

#### 6-SINF

##### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

O'rta asrlar san'atining usul va yo'nalishlarini, tarixi va an'anaviy usullarini tahlil qiladi va solishtiradi

Xitoy va Yaponiya san'ati rassomlarining nam qogozga ishlash texnologiyasida ishlangan asarlaridan zavqlanadi

Sharq miniatyura san'ati, tarixi, maktablari va asarlarini ijodiy tahlil qiladi va zavqlanadi

Dastgoxli rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik asarlaridan zavqlanadi

##### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Rangtasvir, haykaltaroshlik va miniatyura usulida amaliy topshiriq bajarishda ish qurollaridan tug'ri foydalana oladi va sanitariya-gigiena, havfsizlik qoidalariga rioya qiladi

##### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'atdagi tarixiy va mifologik janrga oid rasmlar ishlaydi

Xitoy va Yaponiya san'ati, rassomlarining nam qog'ozga ishlash texnikasidan



oqilona foydalanadi

Haykaltaroshlik, rangtasvir va grafikada harakatdagi odam gavdasini ishlay oladi  
Minyatura san'ati asarlaridan nusxa ko'chira oladi, ertak va adabiy asar syujetlari  
asosida mustaqil kompozitsiya ishlaydi

### 7-SINF

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlikni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'atdagi ramziy belgi va geraldika (gerb, emblema, tamg'a va b.)  
namunalarini solishtiradi

O'zbekistonning amaliy bezak san'ati namunalarini tahlil qiladi

Dizayn san'ati turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi, badiiy ijodiy tahlil qilib  
solishtiradi

O'zbekiston kitob grafikasi san'atiga oid asarlarni tahlil qiladi, mustaqil va ijodiy  
fikrlaydi

O'zbekiston kitob bezovchi rassomlar faoliyati bilan tanishadi va ularning  
asarlarini solishtiradi

O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi

Tasviriy san'atning oqim va yo'nalishlariga oid asarlaridan zavqlanadi va badiiy  
idrok etadi

#### **O'z-o'zini asrash va rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'atning oqim va yo'nalishlari, amaliy bezak, dizayn, me'morlik  
mavzulari asosida amaliy topshiriq bajarishda ish qurollaridan to'g'ri foydalanadi  
va sanitariya-gigiena, havfsizlik qoidalariga rioya qiladi

#### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Tasviriy san'atda ramziy belgi va geraldikani mustaqil ijodkorona ifodalaydi

O'zbekiston naqsh ramzlari va amaliy bezak mavzularida mustaqil kompozitsiya  
tuzadi

Dizayn san'ati turlari asosida eskizlarni ishlaydi

O'zbekiston kitobat san'atiga doir rasmlar ishlaydi

Kitob maketi uchun ilustrasiyalar tayyorlaydi

O'zbekiston me'moriy yodgorliklarining eskizini ishlaydi

Amaliy bezak san'ati namunalariga qarab naqsh ishlaydi

"Men istagan innovatsion, takomillashgan kelajakdagi shahar" mavzusiga  
kompozitsiya ishlaydi

## **UMUMIY O'RTA TA'LIM O'QUVCHILARIGA CHIZMACHILIK FANIDAN QO'YILADIGAN TALABLAR (8-9-SINFLAR)**

### **8-sinf**

КОД

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi**

Bosh va yozma harflar hamda raqamlarning yozish qoidalarini bajarishda ijodiy  
yondashadi

Grafik ishlarni aniq va toza bajaradi

Geometrik shakllarga ijodiy yondashib, girix chizish usullarini biladi

Silindr, konus, shar, piramidalarning proeksiyalarini chizish usullarini toza va aniq  
bajaradi

Oddiy modelning chizmasini tahlil qiladi

Detalning frontal dimetrik va izometrik proeksiyalarini bajarishda aniqlik va  
tozalikka rioya qiladi

#### **O'z-o'zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**

Grafik ishlar bajarishda ish qurollaridan to'g'ri foydalanadi, sanitariya –gigiena  
qoidalariga, texnik havfsizlik qoidalariga rioya qiladi



### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Chizmani taxt qilish, standartlar, formatlar, masshtab haqida ma'lumotlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llaydi

Chizma shriftlari : Bosh va yozma harflar hamda raqamlarning chizish qoidalarini grafik ishlarda bajara oladi

Chiziq turlari va o'lcham qo'yish qoidalariga asoslanib grafik ish bajaradi

Burchak yasash va ularni teng bo'laklarga bo'lish, muntazam ko'p burchaklar yasash usullarini bajaradi

Oktant va epyur mavzusiga oid grafik ish bajaradi

O'kuv modelining eskizini chizadi

Detalning frontal dimetrik va izometrik proeksiyalarini bajara oladi.

Aksonometrik proeksiyalarga oid amaliy mashg'ulot bajara oladi

### **9 sinf**

#### **Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi**

Kesim va qirkiqlarning turlarini farqlaydi

Kesimda shartlilik va soddalashtirishlarga oid grafik ishlarni tirishqoqlik bilan bajaradi

Loyihalash ishlariga ijodiy yondashadi

Qurilish chizmalarini tahlil qiladi va hulosalaydi

#### **O'z-o'zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi**

Grafik ishlar bajarishda ish quollaridan to'g'ri foydalanadi, sanitariya-gigiena va texnik havfsizlik qoidalariga rioya qiladi

#### **Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi**

Grafik ish bajarishda kesimlar, qirqimlar haqidagi ma'lumotdan foydalanib bajaradi

Kesim va qirqimning bir-biridan farqlay oladi va grafik ishlarida bajaradi

Frontal dimetrik va izometriya proeksiyalarda qirqim bajarish usullarini grafik ishda amalga oshiradi

Mashinasozlik chizmalarini konstruktorlik ishlariga ijodiy yondashadi

Ajraladigan va ajralmaydigan birikmalarga oid grafik ishlarni bajara oladi

Rezbalar va ularning turlarini biladi va shunga oid grafik ishlar bajara oladi

Kompyuterda buyumlarni konstruksiyalash usullarini bajaradi

Qurilish chizmalarini o'qiydi va grafik ishlar bajara oladi





## TASVIRIY SAN'AT FANINING O'QUV DASTURI

### TUSHUNTIRISH XATI

O'quvchilar Tasviriy san'at darslarida borliqdagi va san'at asarlaridagi go'zalliklarni ko'ra olish, qadrlash va muhofaza qilishni o'rganib boradilar.

Tasviriy san'at fani orqali o'quvchilarni rangtasvir, grafika va haykaltaroshlik, shuningdek, amaliy, me'morchilik, miniatyura va dizayn san'atining o'ziga xos tasviriy usullaridan, ifodaviy vositalardan amaliy-ijodiy faoliyatda to'g'ri foydalana olishi nazarda tutiladi.

O'quv dasturi fanning xususiyati, mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, san'atshunoslik asoslari, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik va kompozitsiya kabi boblarga ajratildi va o'quv soatlari boblar kesimida berildi. Bunda o'qituvchi bob soatlarini o'zgartirmagan xolda, mavzular soatini o'z taqvim rejasida taqsimlashi mumkin.

Tasviriy san'at fanini o'qitishning maqsadi: o'quvchilarda badiiy idrok va tafakkurni rivojlantirish hamda tasviriy savodxonlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Tasviriy san'at fanini o'qitishning vazifalari:

tevarak-atrofdagi narsa va hodisalardagi go'zalliklarni ko'ra bilish va idrok etish hamda kuzatish asosida olingan taassurotlarni hayotga tatbiq etishga o'rgatish;

o'quvchilarda badiiy-ijodiy qobiliyatlarni o'stirish;

o'quvchilarning tasviriy-ijodiy malakalarini shakllantirish;

bolalarda ko'rish xotirasini, chamalash qobiliyatini, rang sezishni, kompozitsion madaniyatni, fazoviy fikrlash, obrazli tasavvur, kombinatsiyalash va perspektiva qonuniyatidan foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish;

o'quvchilarni tasviriy, amaliy-bezak, me'morlik, miniatyura va dizayn san'ati bilan tanishtira borib, ularda ushbu san'at turlarining o'ziga xos xususiyatlarini idrok etishga o'rgatish, estetik va emotsional sezgirlikni, qiziqish va muhabbatni tarbiyalash, badiiy fikr doirasini kengaytirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikr yuritish va kreativ qobiliyatlarini tarbiyalash yetakchi o'rinni egallaydi.

1-4-sinflarda bo'yoq bilan ishlash mashg'ulotlarida ranglarning turli tus va och-to'qligini farqlay bilishga, kerakli ranglarni tanlay olishga o'rgatish asosiy vazifadir. Bu sinflarda ko'proq guash, akvarel bo'yog'i va ularning aralashmalaridan foydalaniladi.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarda tasvirni qog'ozga to'g'ri joylashtirish, buyum va narsaning shaklini topa bilish, ularning o'zaro nisbatlarini aniqlay olish va aniq chiza bilish talab etiladi.



## GRAFIKA

Grafika (qalamtasvir) yo'nalishidagi mashg'ulotlar ham keng qamrovli materiallarni o'qitishni nazarda tutadi. Eng muhimi, o'quvchilarda qalamtasvir badiiy ijodning barcha turlarining asosi ekanligini amaliy-tasviriy faoliyatda his etishga imkon yaratadi.

## HAYKALTAROSHLIK

Haykaltaroshlik mashg'ulotlarining salmog'i boshlang'ich sinfdagiga nisbatan kamaygan bo'lsada, uning mazmuni, shakl va kompozitsion «yuklamalari» ancha murakkablashganligi bois o'qituvchidan har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishni talab etadi.

Dasturda haykaltaroshlik mashg'ulotlari mavzularining umumiyligi (rangtasvirda portret, qalamtasvirda portret, haykaltaroshlikda portret), o'zaro bog'liqligi bilan bir qatorda xususiyligi (haykaltaroshlikda lirizm va drammatizm), uning o'ziga xos turlari (dastgohli, mahobatli, xiyobonlar uchun ishlanadigan dekorativ haykallar, hajmli haykaltaroshlik, yarim qabariq bo'rtma relefli haykaltaroshlik)ning ifodaviy vositalari kabi komponentlariga alohida e'tibor berish lozim.

## RANGTASVIR

Rangtasvir yo'nalishi dasturdagi eng salmoqli qism bo'lib, unda o'quvchilar tasviriy faoliyatning oddiy ko'rinishlari (nuqtaga qarab tasvirlash)dan tortib, murakkab shakllari (eskizlar asosida mavzuli asar, dastgoh rangtasviri namunasini yaratish)da o'zlarini sinab ko'radilar;

manzara va portret janrlarida rang orqali kayfiyatni ifodalash, miniatyura usulida ilustrativ kompozitsiyalar ishlashni amalda bajaradilar;

turli oqim va yo'nalishda ishlangan asarlarning talqinini o'rganadilar va amaliy mashqlar bajaradilar;

rangshunoslik va uning texnologik jarayonlariga oid nazariy va amaliy bilimlarini boyitadilar.

## KOMPOZITSION FAOLIYAT

Kompozitsion faoliyat bo'limi quyidagi qismlardan tashkil topadi:

- a) rangtasvir kompozitsiyasi;
- b) dekorativ kompozitsiya;
- v) haykaltaroshlik kompozitsiyasi.

Rangtasvir kompozitsiyasi mavzu asosida, xotira va tasavvurdan rasmlar ishlash tarzida tashkil etiladi. Bunda tanlangan mavzuga ko'ra, uning elementlari qog'oz yuzasida bir-biriga bog'liq holda joylashib, yaxlit kompozitsiyani hosil qiladi.

Kompozitsiyada asar yaratishning muayyan qoidasi, simmetriya, nosimmetriya, muvozanat, detallarning o'lchovi, shakli, rangi kabilarga rioya qilinadi.



Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlari asosan tevarak-atrofdagi hayotni aks ettiruvchi mavzularda rasm ishlashga asoslanadi. O'quvchilar mashg'ulotning bu turida rasmini naturadan emas, balki mavzu asosida, xayoldan va tasavvurdan ishlaydilar.

Rangtasvir kompozitsiyasi mashg'ulotlarining asosiy vazifalari o'quvchilarga narsalarning shakli, rangi, ularning tuzilishi haqidagi tushunchalar berish, eng qiziq mavzu tanlay olish, bir necha eskiz variantlarni chizish, qog'ozda rasmini to'g'ri joylashtirishga o'rgatish kabilardan iboratdir.

Kompozitsiya qonuniyatlarini o'quvchilar ongiga yetkazishda tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalaridan foydalanish va ularni tahlil qilishning ahamiyati katta.

Shuningdek, san'atshunoslik asoslari bo'yicha san'at tarixi va nazariyasining oddiydan murakkabga o'tish tamoyiliga asosan quriladi. Bu faoliyat turi o'quvchilarning nazariy jihatdan tasviriy va kompozitsion faoliyatiga, san'at asarlaridagi obrazlar yechimini sharxlash, badiiy tanqidchilik asoslaridan elementar o'rgatiladi. Shu tariqa o'quvchilar bu faoliyat turlarida tasviriy, amaliy san'atning badiiy-ifodaviy vositalari va qonuniyatlarini (rang, mazmun, shakl, faktura, nisbat, perspektiva, kompozitsion markaz, muvozanat, tasvirlash texnikasi, texnologiyasi va h.k.) mavzu va mazmunga monand tarzda qo'llay bilish, unda eskizlardan foydalanish kabi vazifalarni hal etishni o'zlashtirib boradilar.

Adabiy asarlarga ilustrasiyalar ishlash esa o'quvchilarning eng qiziqarli mashg'ulotlaridan bo'lib, unda bolalar ertak, hikoya, masaldagi qahramonlarning obrazlarini o'z rasmlarida ifodalashga harakat qiladilar.

Zamonaviy mavzulardagi asarlarga yoki dostonlarga hamda ertaklarga kompozitsiya ishlash uchun avvalo, bolalar mavzuga oid odam, hayvon rasmlari va ba'zi bir narsalarning o'ziga qarab rasmini chizadilar.

b) dekorativ kompozitsiya turli shakldagi naqshlarning namunasidan ko'chirish, mustaqil ijodiy naqsh ishlash hamda dekorativ-bezak ishlarini qamrab oladi.

v) haykaltaroshlik kompozitsiyasi real haykaltaroshlik va dekorativ haykaltaroshliklarga bo'linadi.

Real haykaltaroshlikda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzularda haykallarni asliga o'xshatib ishlaydilar. Bunda o'quvchilar tasviriy san'at mashg'ulotlarining boshqa turlarida egallagan bilim, ko'nikma va malakalariga tayanadilar.

Dekorativ haykaltaroshlik – haykaltaroshlikning turlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarda turli dekorativ bezakli releflar va o'yinchoqlar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qiladi.

Bu yo'nalishlarning o'quv-tarbiya vazifalari quyidagi faoliyat turlarida amalga oshiriladi:

- tasviriy san'at vositasida o'quvchilarni atrof-muhitdagi, san'atdagi go'zalliklarni ko'ra bilishga va ularga estetik munosabat bildirishga,



san'atning ijtimoiy mohiyatini va ahamiyatini teran anglagan holda me'moriy yodgorliklarni, tasviriy, amaliy, miniatyura va dizayn san'ati asarlarini milliy iftixor, qadriyat sifatida e'tirof etish va muhofaza qilishga o'rgatish;

- o'quvchilarni tasviriy, amaliy, miniatyura va dizayn san'ati, me'morchilikning tasviriy vositalari, ifodaviy-obrazli vositalari bilan tanishtira borib, ulardagi tasviriy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, san'at bilan muntazam shug'ullanish ehtiyojini tarkib toptirish;

- o'quvchilarni san'at bilan muloqot jarayonida olgan taassurotlarini tasviriy va amaliy san'at, miniatyura va dizayn san'atining (rangtasvir, qalamtasvir, haykaltaroshlik, amaliy san'at, badiiy loyihalashtirish va b.) turlarida ularga xos tasviriy-ifodaviy vositalar, qonuniyatlar asosida o'zlarining ijodiy faoliyatlarida qo'llay bilishga o'rgatish;

- tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonini o'quvchilarda estetik did, estetik ong, badiiy tasavvur va tafakkurni tarkib toptirish hamda rivojlantirishga yo'naltirish orqali ma'naviy barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish;

- ijodiy-tasviriy faoliyatga moyilligi bor o'quvchilarni badiiy iste'dodlarini takomillashtirish, ularni badiiy kasb va hunarlarga yo'naltirish.

Me'morlik san'atiga oid materiallarni o'tishda ham kompleks yondashuv talab etiladi. Asosan me'morlik tarixiga oid materiallar, me'moriy ko'rinishlar aks ettirilgan manzara, me'moriy mavzuda tarixiy xarakter kasb etuvchi kompozitsiyalar va me'morlik obidalarning elementlarini bezatish.

Amaliy va dizayn san'ati o'z mazmuni, mohiyatiga ko'ra bir yo'nalishga birlashtirildi. Boisi, dizayn san'ati bo'yicha dasturda berilgan mavzu va topshiriqlarda (milliy zamonaviy libos eskizi, interer eskizi) amaliy san'at elementlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Dizayn san'ati nisbatan yangi san'at turi. Shuning uchun o'ziga xos terminologiyasini o'quvchilarga tushuntirib berish lozim. Zero, dizayn turmushning barcha jabhalarida mavjud. Shu jihatdan dizayn san'ati bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda yuksak madaniyatni shakllantirib boradi.



## I SINIF

### I bob. GRAFIKA (9 soat)

**Tasviriy san'at darsida ishlatiladigan ish qurollari.** Rassomning ish qurollari bilan tanishtirish va ulardan foydalanish haqida tushuncha berish.

**Chiziq turlari.** To'g'ri, egri, to'lqinli, yarim oy shaklli chiziqlarni ko'rinishi. To'g'ri chiziqdan: uy, kema; egri chiziqdan: tog'; to'lqinli chiziqdan: suv; yarim oy shaklli chiziqdan quyosh, bulut ko'rinishlari tasvirlanadi.

**Qiziqarli shakllar:** (kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, doira, oval). Shakllardan turli o'yinchoqlar (oval-shar, uchburchak-sabzi, doira-olma, kvadrat-kubik) chizish.

**Quvnoq raqamlar.** Quvnoq raqamlardan shakllar hosil qilish. Namuna: 1-zontik, 2-oqqush, 3-kapalak, 4-stul, 5-yuz tuzilishi, 6-qulf, 7-bolta, 8-bantik, gul va b.

*Topshiriq: Raqamlardan shakllar hosil qilish.*

**Kamalak ranglar jilosi (mo'jizasi).** Kamalak: 7 xil rang uyg'inligi, yomg'ir tomchilari, bulut, quyosh, qizil, sariq, ko'k ranglardan iborat soyabon. Turli shakllardan iborat ranglar qo'shilmasini ifodalash.

**Rang va gullar.** Asosiy va hosila ranglar haqida tushuncha berish hamda ish jarayonida qo'llashni o'rganish. Romashka guli kamalak ranglarda ifodalash. Romashka gulini ishlash bosqichlari va buyash usulini tasvirlash.

*Topshiriq. Ixtiyoriy chizilgan gulni ranglarda ifodalash.*

**Barg rasmini chizish.** Barg rasmini ishlash bosqichlari va bo'yash usuli.

Topshiriq: Barglarni qaysi mevali daraxtga tegishli ekanligini ajratish. O'quvchilarga mevali va manzarali daraxtlar chizish bo'yicha topshiriq berish lozim.

**Kuz ne'matlari.** Shakllardan mevalar, sabzavotlar va poliz ekinlarini chizish va bo'yash.

*Topshiriq: chizilgan rasmlardan kuzgi mevalarni ajratish va savatga joylashtirish.*

**Bog'da tipratikon.** Tipratikonni bosqichma-bosqich chizish. Barg va olma rasmlarini tipratikon to'niga joylashtirish.

### II bob. HAYKALTAROSHLIK (6 soat)

**Milliy idish va mevalar yasash.** Milliy idish (piyola, choynak, lagan) va mevalarni (olma, anor, hurmo) plastilin yoki loydan ishlash.

**Jo'ja bilan o'rdakcha.** (Plastinografiya va mozaika usulida ishlash) Plastinografiya usuli va uning turlari haqida tushuncha berish. Uy



hayvonlari (mushuk, kuchuk va b.)ni mozaika usulida plastilin yoki loydan ishlash.

**Baliqcha. (barelef)** Baliq turlari va ranglari haqida tushuncha. Baliqni plastilin yoki loydan barelef usulida ishlash.

**Kuchukcha bilan mushukcha.** Aylanma haykalchalarini ishlash. Uy hayvonlari, kuchukcha va mushukchalarning tuzilishi, rangi haqida tushuncha berish. Rang berish.

**Jirafa va fil.** (hajmga nisbatan) Aylanma haykalchalar ishlash

**Pingvin.** Ptngvin hayvonining ko'rinishi, rangi haqida tushuncha berish va rang berish.

### III bob. RANGTASVIR (10 soat)

**“Yangi yil” mavzusida rasm ishlash.**

**Qishki o'rmon.** Qishki o'rmon va ranglar haqida tushuncha. Qishki o'rmon rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanish, sovuq ranglar bilan ishlashni o'rgatish.

**Quyuncha rasmini chizish.** Quyunchani shakli va rangi haqida tushuncha. Quyuncha rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanish, issiq va sovuq ranglar bilan ishlashni o'rgatish.

**Tulki rasmini chizish.** Tulki shakli va rangi haqida tushuncha. Tulki rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanish, issiq va sovuq ranglar bilan ishlashni o'rgatish.

**Ayiqcha rasmini chizish.** Ayiqcha shakli va rangi haqida tushuncha. Ayiqcha rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanish, issiq ranglar bilan ishlashni o'rgatish.

**Boychechak gulini chizish.** Binafsha guli va ranglari haqida tushuncha. Binafsha guli rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

**Guldonda gullar.** Guldonda gullar va ranglari haqida tushuncha. Guldonda gullar rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

**Onajonimga sovg'a (sovg'alar va turli shirinliklar).** Onajonimga sovg'a mavzusi asosida bayram tabrigini tayyorlash haqida tushuncha. Onajonimga sovg'a mavzusi asosida bayram tabrigini rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

**Nazorat ishi. Guldasta mavzusida rasm ishlash.**

**O'lkamizda Navro'z. Qaldirg'och.** O'lkamizda bahor va unda aks etuvchi ranglar haqida tushuncha. O'lkamizda bahor rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish. Qaldirg'och va uning rangi haqida tushuncha. Qaldirg'och rasmini



qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish, ranglardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

#### IV bob. KOMPOZITSIYA (2-3 elementlardan tashkil topgan) (8 soat)

**Geometrik shakllardan tashkil topgan tabiat.** Geometrik shakllardan tashkil topgan tabiat. Manzarani tasvirlash jarayonida tasvirni qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirib chizish va akvarel bo'yog'ida ishlash.

**Momaqaymoq guli (o't-o'lanlar bilan)** Momaqaymoq guli bilan tanishtirish. Momaqaymoq gulini tasvirlash jarayonida tasvirni qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirib chizish va akvarel bo'yog'ida ishlash.

**Kapalakar (gullar ustida)** Kapalaklarning turlari, tuzilishi va ranglari haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Kapalak rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirib chizish va akvarel bo'yog'ida ishlash.

**Asalari. (asalari uyasi va gullar).** Asalari uyasi va gulga qo'ngan asalari rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirib chizish va akvarel bo'yog'ida ishlash.

**Ninachi (daraxt shoxlari va barglar).** Ninachi rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirib chizish va akvarel bo'yog'ida ishlash.

**Nazorat ishi. Gulzor.** Gulzordagi gullar rasmini qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish va qalamtasvirda tasvirlash.

**Yozgi tabiat.** Manzarani tasvirlash jarayonida tasvirni qog'ozga bosqichma-bosqich to'g'ri joylashtirish va tasvirlash.

#### MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	Grafika	9	1	8
2	Haykaltaroshlik	6	1	5
3	Rangtasvir	10	1	9
4	Kompozitsiya	8	1	7
Jami:		33	4	29



## II SINF

### I bob. GRAFIKA (9 soat)

**Oq va qora rang. “Panda” rasmini ishlash.** Oq va qora ranglar haqida ma’lumot. Oq va qora ranglar Panda hayvonini rasmini grafika usulida ishlash bosqichlari.

**Toshbaqa rasmini chizish.** Toshbaqa rasmini grafika usulida ishlash bosqichlari.

**Chumchuq rasmini ishlash.** Chumchuq rasmini grafika usulida ishlash bosqichlari.

**Barglardan yo’lsimon naqsh ishlash.** Barglardan tashkil topgan yo’lsimon nashqni grafika usulida ishlash bosqichlari.

**“Kuzgi gullar” mavzusida rasm ishlash.** “Kuzgi gullar” mavzusida rasmni grafika usulida ishlash bosqichlari.

**“Behi va nok meva” mavzusida rasm ishlash.** “Behi va nok meva” mavzusida rasmni grafika usulida ishlash bosqichlari.

**“Daraxtlarning kuzgi ko‘rinishi” mavzusida rasm ishlash.** Daraxtlarni kuzgi ko‘rinishini mavzusida rasmini grafika usulida ishlash bosqichlari.

**Nazorat ishi. “Kuz manzarasi” mavzusida rasm ishlash.** “Kuz manzarasi” mavzusida nazorat ishini grafika usulida ishlash.

**“Yomg‘ir yog‘moqda” mavzusida rasm ishlash.** “Yomg‘ir yog‘moqda” mavzusida rasmni grafika usulida ishlash bosqichlari.

### II bob. HAYKALTAROSHLIK (7 soat)

**“Quvnoq sakkizoyoqchalar” mavzusida haykalcha ishlash.** “Quvnoq sakkizoyoqchalar” mavzusida haykalchasini ishlash boqichlari.

**“Oltin baliqcha” haykalcha ishlash.** Kichik hajmda “Oltin baliqcha” haykalini ishlash bosqichlari.

**“Dengiz yulduzi” mavzusida haykalcha ishlash.** “Dengiz yulduzi” mavzusida haykalini relief usulida ishlash bosqichlari.

**Qisqichbaqa haykalchasini ishlash.** Qisqichbaqa haykalini ishlash bosqichlari.

**Delfin haykalchasini ishlash.** Delfin haykalini ishlash bosqichlari.

**“Dengiz oti” mavzusida haykalcha ishlash.** “Dengiz oti” mavzusida haykalini ishlash bosqichlari.

**Nazorat ishi. “Suv osti saltanati” mavzusida plastilindan kompozitsiya ishlash.**





### III bob. RANGTASVIR (10 soat)

**“Vatanimga xizmat qilaman” mavzusida rasm ishlash.** “Vatanimga xizmat qilaman” mavzusida rasm ishlash bosqichlari.

**Sehrli ranglar. Rangli shakllar.** Sehrli ranglar haqida ma’lumot. Rangli shakllar haqida ma’lumot. Qiziqarli shakllarni ranglarda ifodalash bosqichlari.

**“Qor parchalari” mavzusida rasm ishlash.** “Qor parchalari” mavzusini ishlash bosqichlari.

**“Qish manzarasi” mavzusida rasm ishlash.** “Qish manzarasi” mavzusini ishlash bosqichlari.

**Naqsh (oygul va barglardan iborat bo‘lgan elementlar) chizish.** Oygul va barglardan iborat naqsh namunasini ishlash bosqichlari.

**“O‘rik gullaganda” mavzusida rasm ishlash.** “O‘rik gullaganda” mavzusida naqsh namunasini ishlash bosqichlari.

**“Bahorgi gullar” mavzusida tabriknoma tayyorlash.** “Bahorgi gullar” mavzusida tabriknomani ishlash bosqichlari.

**Nazorat ishi.** “Go‘zal bahor tabiati” mavzusida bahor tabiatini ishlash.

### IV bob. KOMPOZITSIYA (8 soat)

**“Svetafor va yo‘l belgilari” mavzusida kompozitsiya ishlash.** Geometrik (to‘rtburchak, uchburchak, doira) figuralar yordamida yo‘l belgilari va svetafor rasmlari kompozitsiyasini ishlash bosqichlari.

**“Velosipedim” mavzusida kompozitsiya ishlash.** Geometrik shakllardan velosiped hosil qilish va kompozitsiya ishlash bosqichlari.

**“Chorrahada avtomobil” mavzusida kompozitsiya ishlash.** Geometrik shakllardan avtomobil shaklini rangli qalamda ishlash. “Chorrahada avtomobil” mavzusida kompozitsiya ishlash bosqichlari.

**Nazorat ishi. Yuk mashina rasmini ishlash.** Yuk mashinasini geometrik shakllarni (guashda) ishlash.

**“Vertolyot va samolyotlar parvozi” mavzusida rasm ishlash.** Rangli qalamlar “Vertolyot va samolyotlar parvozi” mavzusida rasm ishlash bosqichlari.

### MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Boblar nomi	Soatlar taqsimoti		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1	Grafika	9	1	8
2	Haykaltaroshlik	7	1	6
3	Rangtasvir	10	1	8
4	Kompozitsiya	8	2	7
Jami:		34	5	29



### III SINIF

#### I bob. GRAFIKA (9 soat)

**Tasviriy san'atda tur va janrlar.** Tasviriy san'atda tur va janrlar  
**Kontrast va axromatik ranglar.** Kontrast va axromatik ranglar haqida ma'lumot. Kontrast va axromatik ranglarda tasvir ishlash.

**“Atlas matosi” mavzusida rasm ishlash.** Atlas matosi rasmini rangli qalamlarda ishlash bosqichlari.

**2-3 xil mevalardan tuzilgan natyurmort.** 2-3 xil mevalardan tuzilgan natyurmortni ishlash bosqichlari.

**“Idish va mevalar” mavzusida natyurmort ishlash.** “Idish va mevalar” mavzusida natyurmortni ishlash bosqichlari.

**Nazorat ishi.** Ixtiyoriy mavzuda natyurmort ishlash.

**“Sabzavotlar” mavzuda natyurmort ishlash.** “Sabzavotlar” mavzusida natyurmortni ishlash bosqichlari.

#### II bob. HAYKALTAROSHLIK (7 soat)

